

Marifat


Kuch – bilim va tafakkurda

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 6-may chorshanba №18(9603)

YANGI O'ZBEKISTON: O'ZBEK AMALIY TILSHUNOSLIGI RAVNAQI

2-, 3-, 4 – betlar



TAHRIRIYATDAN:

Shiddatli raqamli texnologiyalar asrida til milliy taraqqiyotning strategik resursiga aylandi. E'tiboringizga havola etilayotgan maqolalar o'zbek tilshunosligining XIX asrdagi qiyosiy-tarixiy va XX asrdagi struktur-sistem bosqichlaridan o'tib, XXI asrning amaliy-raqamli tilshunosligiga ko'chishi tahliliga bag'ishlangan. Maqolalarda markazi **Toshkent Amaliy fanlar universiteti** bo'lgan milliy tilshunoslik yo'nalishi – **O'zbek amaliy tilshunosligi** paradigmasining yutuqlari kecha, bugun va kelajak rakursida ko'rib o'tiladi.

Maqolalarning tub mohiyatini o'zbek tilshunosligida yangi davrni boshlab bergan substansial-pragmatik metod tashkil etadi. Bu yondashuv tilni jamiyat ehtiyojlari va raqamli olam bilan bog'lagan holda "imkoniyatdan voqelikka" aylantirishga xizmat qiladi. Maqolalarda o'zbek amaliy tilshunosligining korpus tilshunosligi, o'quv lug'atchiligi, lingvoeksper-tologiya va lingvopromptologiya kabi qator zamonaviy sohalarining shakllanishi, yutuqlari hamda istiqbollari chuqur yoritilgan.

Ular o'zbek tilining global axborot maydonida raqobatbardoshligini ta'minlash va raqamli dunyodagi o'rnini mustahkamlash yo'lidagi strategik dasturdir. Bu ilmiy izlanishlar ona tilimizning boy imkoniyatlarini amaliy natijalarga aylantirish orqali, albatta, Uchinchi renessans poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi.



KIRISH

Tilshunoslik fani murakkab va serqirra yoʻlni bosib oʻtdi. Har bir davr inson tilini anglashda oʻziga xos konsepsiyalarni shakllantirib, tegishli muammolarni hal qilishga urindi. Bugun “uch asr – uch muammo” tamoyili asosida ushbu fanning qiyosiy-tarixiy metod-dan amaliy lingvistikagacha boʻlgan shonli yoʻliga nazar tashlaymiz.

XIX asr tilshunoslik tarixida “tarixiylik” tamoyili ustunlik qilgan davr sifatida muhrlandi. Bu davrda olimlar tilni tirik organizmga qiyoslab, paydo boʻlishi, rivojlanishi va qarindoshlik ildizlarini tadqiq etdilar. Frans Bopp, Yakob Grimm va August Shleyxer kabi buyuk namoyandalar qiyosiy-tarixiy metod orqali hind-yevropa tillari oilasi va boshqa prototillarni kashf etdilar. Bu davrning eng katta yutugʻi – tillarning geneologik tasnifini beruvchi “shajara modeli” va Grimm qonuni kabi qatʼiy fonetik qonuniyatlarning yaratilishi boʻldi. Biroq bu davr yondashuvi tilning ijtimoiy va pragmatik tomonlarini yetarlicha hisobga olmaslik kabi cheklanishlarga ega edi.

XX asrga kelib tilshunoslikda tub burilish yuz berdi: eʼtibor tilning tarixiy rivojidan sinxron qurilishga koʻchdi. Ferdinand de Sossyur tomonidan ilgari surilgan “lison”(ijtimoiy tizim) va “nutq”(individual jarayon) tushunchalari fanda inqilob yasadi. Til endi oʻzaro bogʻliq qismlardan iborat sistema – struktura sifatida oʻrganila boshlandi. Praga lingvistik maktabi fonologik oppozitsiyalarni, Amerika deskriptivizmi tilni obyektiv tasvirlash metodlarini ishlab chiqdi. Asr oʻrtalariga kelib Noam Xomskiyning generativ grammatikasi inson ongidagi “til qobiliyati” nazariyasini oʻrtaga tashladi. XX asr tilni sathlarga boʻlib oʻrganish va matematik-formal modellari yaratish bilan tilshunoslikning ilmiy poydevorini mustahkamladi.

XXI asrda globalizatsiya va texnologik inqilob tufayli amaliy tilshunoslikka boʻlgan ehtiyoj keskin ortdi. Endilikda lingvistlar kompyuter lingvistikasi, sunʼiy intellekt va mashina tarjimai kabi real muammolar ustida ishlamoqda. Natural language processing (NLP) algoritmlari ChatGPT kabi katta til modellarining yuragi hisoblanadi. Ammo bu sohada maʼno noaniqligi, resurslar yetishmasligi va koʻp tillilik kabi hal qilinishi lozim qator muammolar hamon mavjud.

Hozirgi davrning yana bir muhim masalasi – global aloqa tili (lingua franca) sifatida ingliz tilining ustunligi va milliy tillar, xususan, terminologiyani saqlab qolish muammosidir. Madaniy tafovutlar, til siyosati va raqamli muhitdagi “norasmiy” tilning oʻzgarishi zamonaviy tilshunoslar oldiga yangi vazifalar qoʻymoqda.

Shunday qilib, tilshunoslikning uch asrlik yoʻli oddiy tarixiy qiyoslashdan murakkab raqamli algoritmlargacha keldi. Oʻzbek tilshunosligi ham ushbu kontekstda taraqqiy etmoqda. Quyida soʻz karvoni harakatini ana shu nuqtadan boshlaydi.



YANGI OʻZBEKISTON:

1. SUBPRAGMALINGVISTIKA

Soʻnggi yillarda oʻzbek tilshunosligi nafaqat nazariy jabha, amaliy tatbiq masalalarida ham tub burilish yasamoqda. Bu jarayonning markazida tilni jonli muloqot jarayonida oʻzini namoyon qiluvchi substansial-pragmatik hodisa sifatida tadqiq etish yotibdi. Bu yoʻnalishga tamal toshini qoʻygan (2013-yilda eʼlon qilingan) “Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi” deb nomlangan maqola soha mutaxassislari uchun yangi tadqiqotlar metodologiyasini belgilab bergan edi.

Tilni substansial-pragmatik aspektda oʻrganish til-dagi mavjud lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelikka aylanish mexanizmlarini ochib berish demakdir. Bu yondashuvning asosiy maqsadi ona tili imkoniyatlaridan amaliy foydalanish samaradorligini taʼminlash, muloqotning nazariy poydevori va innovatsion asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Bu boradagi izlanishlar natijasida qator fundamental tadqiqotlar bajarildi. Koʻrinadiki, shaxsning lisoniy imkoniyatdan foydalanishi soʻzlovchi va tinglovchining shaxsiy sifatleri, nutq maqsadi, strategiyasi, odo-bi va dunyoqarashi kabi qator nolisoniy omillar bilan uzviy bogʻliq. Ayniqsa, grammatik maʼnoning nutqiy voqelanishida lisoniy omillar kuchayganda nolisoniy omillarning susayishi yoki, aksincha, holatning yuzaga chiqishi faktik materiallar asosida isbotlandi.

Oʻzbek substansial-pragmatik tilshunosligining oʻziga xosligi shundaki, u Yevropada rivojlangan mumtoz pragmalingvistikadan tubdan farq qiladi. Agar dunyo pragmalingvistikasi muloqotni faqat samaradorlik nuqtayi nazaridan oʻrgansa, oʻzbek maktabi bu jarayonni tilning boy imkoniyatlar xazinasini – substansiyasi bilan bogʻliq holda tahlil qiladi. Bu yoʻnalishda dialektika, sinergetika va ochiq sistema nazariyalari umumfan metodologiyasi sifatida xizmat qilmoqda.

Tadqiqotlarning amaliy natijasi oʻlaroq, bugungi kunda “Substansial-pragmatik terminlarning qisqacha izohli lugʻati” yaratildi. Bu lugʻatning elektron, mobil va onlayn turlari ishlab chiqilmoqda, terminlar oʻzbek tili milliy va taʼlimiy korpuslariga joylashtirilmoqda. Bu, oʻz navbatida, uzluksiz taʼlim tizimidagi “Ona tili” darsliklarini takomillashtirishga, yangi akademik grammatikalar tuzish va muloqot madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Oʻzbek tilining substansial-pragmatik tadqiqi tilimizning ichki quvvatini toʻlaqonli yuzaga chiqarish imkonini beradi. Bu yoʻnalishdagi yutuqlar muloqot jarayonida qaysi til birligini qaysi vaziyatda qoʻllash koʻproq samara berishini ilmiy asoslab, milliy nutq madaniyatimizni yangi bosqichga koʻtarishga xizmat qilishi shubhasiz.

2. OʻQUV LUGʻATCHILIGI

Shiddatli axborot asrida til oʻrganish va amaliyotda toʻgʻri qoʻllash davr talabiga aylandi. Bu jarayonda tilshunoslikning amaliy tarmogʻi hisoblangan oʻquv leksikografiyasi (lugʻatchiligi) alohida oʻrin tutadi. Oʻquv lugʻatchiligi – lugʻat tuzish jarayonini aniq bir didaktik maqsadga xizmat qildirishni nazarda tutuvchi soha, u darsliklar, oʻquv qoʻllanmalari va raqamli platformalar bilan integratsiyalashgan holda rivojlanmoqda. Uzoq vaqt davomida lugʻatchilikda akademik yondashuv ustunlik qilgan boʻlsa, bugun eʼtibor foydalanuvchining yoshi, bilim darajasi va ehtiyojlariga moslashtirilgan maxsus lugʻatlar yaratishga qaratilmoqda. Anʼanaviy lugʻatlar juda keng qamrovli va murakkab boʻlgani sababli maktab oʻquvchilari uchun maʼlumotlarni tez va tushunarli shaklda yetkazib beruvchi sodda metodikaga ehtiyoj tugʻildi.

Oʻquv lugʻatchiligining markaziy tamoyili – tanlanma (selektiv) yondashuv. Bunda tilning oʻquv dasturlari va kundalik muloqotda eng koʻp qoʻllanadigan, zaruriy leksik birliklar saralab olinadi. Masalan, maktab oʻquvchilari uchun yaratilayotgan sinonim, antonim yoki frazeologik lugʻatlarda soʻzlarning nutqda-

gi “xulq-atvori”, uslubiy boʻyogʻi va qoʻllanish doirasi ham sodda misollar bilan tushuntiriladi. Bu oʻquvchining lugʻat boyligini oshiribgina qolmay, mantiqiy tafakkur va muloqot madaniyatini ham shakllantiradi. Oʻzbek tilshunosligida bu jarayon substansial-pragmatik yoʻnalish bilan uzviy bogʻliq holda olib borilmoqda. Yaʼni soʻz nutqiy vaziyatda muvaffaqiyat keltiruvchi “voqelik” sifatida taqdim etilmoqda.

Hozirgi bosqichda oʻquv lugʻatchiligi raqamli transformatsiyani boshidan kechirmoqda. Endilikda qogʻoz nashrlarning oʻrmini multimedia vositalari bilan boyitilgan interfaol lugʻatlar egallamoqda. Korpus lingvistikasi usullari orqali soʻzlarning real matnlardagi qoʻllanish chastotasi aniqlanib, eng muhim birliklar lugʻatning markaziga chiqarilmoqda. Gamifikatsiya, yaʼni oʻquv jarayonini oʻyin elementlari bilan boyitish va personalizatsiya tamoyillari orqali har bir foydalanuvchiga individual oʻquv yoʻli taklif etilmoqda. Bu til oʻrganuvchiga soʻzning talaffuzini eshitish, qaysi soʻzlar bilan birika olishini koʻrish va turli test orqali oʻz bilimini tekshirish imkonini beradi.

Kelajakda oʻquv lugʻatchiligining istiqbollari sunʼiy intellekt va “aqlli” assistentlar bilan bogʻliq. Lingvokulturologik lugʻatlar orqali xalqning madaniy kodi va tafakkurini yoshlarga sodda shaklda yetkazish, shuningdek, darsliklar bilan uzviy integratsiyalashgan onlayn ekotizimlarni yaratish ustuvor vazifa boʻlib qoladi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy oʻquv lugʻatchiligi bilimlar ummonidan toʻgʻri yoʻl topishga yordam beruvchi eng ishonchli kompasdir. U nafaqat soʻz maʼnosini oʻrgatadi, milliy tilimizning boy imkoniyatlarini amaliy muloqotda samarali qoʻllash mahoratini shakllantiradi.

3. KORPUS TILSHUNOSLIGI

Bugungi axborotlashgan jamiyatda tilshunoslik fani anʼanaviy metodlardan uzoqlashib, aniq dalil va ulkan maʼlumotlar bazasiga tayanadigan yangi bosqichga qadam qoʻydi. Bu jarayonning markazida amaliy tilshunoslikning eng zamonaviy yoʻnalishi – korpus tilshunosligi turibdi. Korpus maʼlum mezonlar asosida saralangan, maxsus kompyuter dasturlari yordamida tahlil qilinadigan lisoniy boylikdir. Oʻzbek tilshunosligida korpuslarning yaratilishi tilni real maʼlumotlar asosida oʻrganish, nutqiy va yozma kompetensiyani rivojlantirish hamda matn tahlilini avtomatlashtirishda inqilobiy qadam boʻldi.

Korpus tilshunosligining asosiy yutugʻi shundaki, u til birliklarini real matnlardagi qoʻllanish chastotasi orqali tahlil qiladi. Masalan, tildagi biror soʻzning qaysi davrda koʻp ishlatilgani, qaysi soʻzlar bilan birikishni yoqtirishi (kollokatsiya) yoki uslubiy xususiyatlari bir necha soniya ichida aniqlanadi. Bu jarayonda matnlarni lingvistik belgilash (annotatsiya) muhim rol oʻynaydi. Annotatsiya matndagi har bir soʻzga uning morfologik, sintaktik va semantik xususiyatlari haqida “maʼlumot yorligʻi” yopishtirishdir. Bu kompyuterga inson tilini “tushunish” va tahlil qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunda korpuslarning bir necha turi mavjud, ular tadqiqot maqsadiga koʻra farqlanadi. Monolingval korpuslar faqat bir til materialini jamlasa, multilingval (koʻp tili) korpuslar tillararo qiyosiy tadqiqot va mashina tarjimai uchun xizmat qiladi. Ayniqsa, tildagi oʻzgarishlarni vaqt oʻlchami boʻyicha kuzatish imkonini beruvchi diaxronik korpuslar til tarixini oʻrganuvchilar uchun beqiyos manbadir. Oʻzbek tilshunosligida korpuslar yaratilishi leksikografiya (lugʻatchilik) sohasini ham tubdan oʻzgartirdi. Endilikda lugʻat tuzuvchilar soʻz maʼnolarini aniqlashda korpusdagi minglab jonli misollarga tayanmoqdalar.

Korpus tilshunosligining amaliy ahamiyati faqatgina nazariy tadqiqotlar bilan cheklanmaydi. U pedagogik amaliyotda, yaʼni til oʻqitish metodikasida juda qoʻl keladi. Oʻquvchilar korpus yordamida soʻzlarning matndagi tabiiy qoʻllanishini koʻradilar, bu ularning nutqiy mahoratini oshiradi. Shuningdek, tarjima amali-

O‘ZBEK AMALIY TILSHUNOSLIGI RAVNAQI

yoti, terminologiyani standartlashtirish va til siyosatini yuritishda korpuslar obyektiv hakam vazifasini o‘taydi. NLP(tabiiy tilni qayta ishlash) texnologiyalari, qidiruv tizimlari va sun‘iy intellektning rivojlanishi ham aynan sifatli korpuslarga bog‘liq.

Korpus tilshunosligi – nazariya va amaliyotni bog‘lovchi mustahkam poydevor. O‘zbek tilining milliy va ta‘limiy korpuslarini doimiy boyitib borish milliy madaniy merosimizni raqamlashtirish va ona tilimizning jahon tillari qatorida nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda korpuslar har bir til o‘rganuvchi va tadqiqotchi uchun kundalik ehtiyojga aylanadi. Raqamli dunyoda tilning hayotiylikini ta‘minlash – uning korpuslar orqali qayta ishlanishi va tizimlashirilishida.

4. LINGVOMA’NAVIYATSHUNOSLIK

Bugungi globallashuv davrida milliy o‘zlikni asrab qolish va yosh avlod ma‘naviyatini yuksaltirish masalasi har qachongidan ham dolzarb. Tilshunoslik fani endilikda insonning ichki olami va millat ruhini tadqiq etuvchi yangi-yangi sohalar bilan boyimoqda. Ana shunday zamonaviy va istiqbolli yo‘nalishlardan biri – **lingvoma’naviyatshunoslik**. Bu soha til birliklarining ma‘naviy mohiyati, shaxs tarbiyasidagi o‘rnini hamda til va ma‘naviyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ilmiy asosda o‘rganadi.

Lingvoma‘naviyatshunoslikning yuzaga kelishi bejiz emas. Zero, “til – millatning ruhi”, “til – ma‘naviyat quyoshi” kabi iboralar chuqur ilmiy haqiqat. Til inson ongidagi ma‘naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi va ajlodlardan avlodlarga uzatuvchi asosiy vositadir. Bu fan yo‘nalishi tilshunoslikning pragmalingsvistika, psixologiya, sotsiologiya va lingvokulturologiya kabi sohalar bilan tutashgan nuqta, ya‘ni interdisciplinar (fanlararo) asosda shakllangan.

Ma‘naviyat – insonning ichki dunyosi, e‘tiqodi va axloqiy qarashlari majmuasi bo‘lsa, lingvoma‘naviyatshunoslik mana shu tushunchalarning tilda qanday aks etishini tadqiq qiladi. Masalan, “andisha”, “nomus”, “sadoqat”, “muruvvat” kabi so‘zlar o‘zbek xalqining ma‘naviy kodi yuklangan lisoniy konseptlardir. Bu yo‘nalishda so‘zning konnotatsiyasi, ya‘ni unga yuklangan hissiy va madaniy ma‘no qatlamlari chuqur tahlil qilinadi. Ayniqsa, ma‘naviy semantika masalasi – so‘z va iboralarda axloqiy mazmunning shakllanish tizimi lingvoma‘naviyatshunoslikning o‘zagini tashkil etadi.

Bu sohaning amaliy ahamiyati beqiyosdir. Lingvoma‘naviyatshunoslik tadqiqotlari natijasida ona tili ta‘limi yangi bosqichga ko‘tariladi. Endilikda maktab darsliklarida so‘zlar ularning tarbiyaviy kuchi, ma‘naviy ta‘sirchanligi nuqtayi nazaridan ham tahlil qilinadi. Bu o‘quvchilarda nutq odobi va milliy qadriyatlarga hurmat hissini ham shakllantiradi. Shuningdek, ma‘naviy konseptlarning ongdagi kognitiv ifodasini o‘rganish orqali jamiyatdagi axloqiy muammolarni lisoniy nuqtayi nazardan tushunish va bartaraf etish imkonini tug‘iladi.

Shunday qilib, lingvoma‘naviyatshunoslik – mustaqillik yillarida shakllangan va tobora keng quloqch yoyayotgan milliy tilshunosligimizning eng hayotiy tarmog‘idir. U tilimizni millat ma‘naviyatining ko‘zgusi sifatida ulug‘laydi va uni asrash muqaddas ma‘naviy burch ekanligini anglatadi. Til va ma‘naviyat uyg‘unligini tadqiq etish orqali kelajak avlod uchun yuksak axloqiy zaminni ham tayyorlagan bo‘lamiz. Zero, ma‘naviyati yuksak millatning tili ham mangu yashaydi.

5. LINGVOEKSPERTOLOGIYA

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida har bir aytilgan so‘z yoki yozilgan matn na-faqat axborot vositasi, huquqiy oqibatlarini keltirib chiqaruvchi dalilga ham aylanishi mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va rasmiy

muloqotlarda turli ziddiyatli matnlarning ko‘payishi tilshunoslikning huquqshunoslik bilan tutashgan yangi va dolzarb tarmog‘i – **lingvistik ekspertologiya**ning shakllanishiga zamin yaratdi. Bu soha tilshunoslik, huquq, psixologiya va kriminologiya fanlari chorrahasida turib, jamiyatdagi adolatni ta‘minlashda til birliklariga xolis baho beruvchi muhim mexanizm hisoblanadi.

Lingvistik ekspertologiyaning asosiy vazifasi huquqiy nizo keltirib chiqargan matnlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish va ekspert xulosasini berishdir. Bu jarayonda mutaxassislar matnning lug‘aviy-semantik tarkibi, muallifning niyati(intensiyasi) va nutqning tinglovchiga ta‘sir kuchini o‘rganadilar. Masalan, haqorat, tuhmat, diniy adovatni qo‘zg‘atish yoki ekstremistik chaqiriqlar bilan bog‘liq jinoyat ishlarida so‘zning asosiy va ko‘chma ma‘nolari, kontekstdagi o‘rni sud hukmi uchun hal qiluvchi dalil bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ekspert uning pragmatik xususiyatlariga ham e‘tibor qaratadi.

Sohaning eng murakkab yo‘nalishidan biri – mualliflikni aniqlash. Har bir kishining nutqi o‘ziga xos “lisoniy barmoq izi”ga ega. Ekspertlar muayyan matndagi leksik, fonetik va stilistik belgilarni tahlil qilish orqali matn kim tomonidan yozilgani yoki anonim xatning muallifi kimligini ilmiy asoslab beradilar. Bu jarayonda muallifning bilim darajasi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi va nutqiy odatlari o‘rganiladi. Shuningdek, lingvistik ekspertiza intellektual mulkni himoya qilish, tovar belgilari va brendlarning o‘xshashlik darajasini aniqlash kabi iqtisodiy nizolarda ham keng qo‘llanadi.

Lingvistik ekspertologiyaning amaliy ahamiyati jamiyatda so‘z mas‘uliyatini oshirishda yaqqol ko‘rinadi. Ziddiyatli matnlarga berilgan xolis va ilmiy baho inson sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, jamiyatda barqarorlikni saqlash hamda huquqiy adolatni qaror toptirishga xizmat qiladi. Bugungi kunda bu sohada pragmalingsvistika va diskurs tahlili metodlaridan keng foydalanilayotgani ekspert xulosalarining aniqligi va ishonchligini ta‘minlamoqda. Sud-ekspertiza faoliyatida nutqiy dalillarni to‘g‘ri talqin qilish sudya va tergovchilarning ishini yengillashtirib, xato hukmlarning oldini oladi.

Lingvistik ekspertologiya zamonaviy tilshunoslikning jamiyat hayotiga bevosita daxldor eng amaliy sohasidir. U tilni qonun va adolat himoyasidagi qudratli vosita sifatida namoyon etadi. Kelajakda raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellekt rivojlanishi bilan lingvistik ekspertiza imkoniyatlari yanada kengayadi. Bu har bir vatandoshdan aytilayotgan har bir so‘zning huquqiy mas‘uliyatini teran anglashni talab etadi. Zero, adolatli jamiyatda so‘z ham qurol, ham qalqon bo‘lib xizmat qiladi.

6. RAQAMLI TILSHUNOSLIK

Bugungi kunda “raqamlashmagan til – o‘lik tildir” degan ifoda tilshunoslikning eng dolzarb haqiqatiga aylandi. XXI asrda tilning yashovchanligi raqamli maydondagi mavjudligi, ya‘ni kompyuter xotirasi va sun‘iy intellekt tizimlariga qanchalik moslashganligi bilan belgilanmoqda. Raqamli tilshunoslik til birliklarini kompyuter dasturlari yordamida qayta ishlash, matnlarning elektron bazalarini yaratish va inson nutqini mashina tiliga o‘girish bilan shug‘ullanuvchi zamonaviy amaliy sohadir.

O‘zbek tili ham so‘nggi yillarda raqamli taraqqiyot sari dadil qadam qo‘ymoqda. Milliy korpus, onlayn lug‘at va avtomatik tarjima tizimlarining yaratilishi ona tilimizning virtual makondagi nufuzini oshirmoqda. Ayniqsa, nutqni matnga aylantirish(Speech-to-Text) va matnni ovozi shakliga o‘tkazish(Text-to-Speech) texnologiyalari o‘zbek tili uchun ham muvaffaqiyatli tatbiq etilmoqda. Bu jarayonlar imkoniyati cheklangan shaxslar uchun til vositalaridan foydalanishda keng imkoniyatlar ochadi.



Raqamli tilshunoslik sohasida hali yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud. O‘zbek tilining dialektal ma‘lumotlar bazasi to‘liq shakllanmagani, fonetik va morfologik modellarning raqamli formatga mukammal o‘tkazilmagani sun‘iy intellekt tizimlari uchun ma‘lumotlar hajmi kamligini keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, o‘zbek tili kabi agglutinativ tillar uchun avtomatik tahlil modellarini yaratish murakkab matematik va lingvistik hisob-kitoblarni talab etadi. Shuningdek, internet segmentida o‘zbek tilidagi sifatli ma‘lumotlar bazasini ko‘paytirish va til xavfsizligini ta‘minlash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Raqamli tilshunoslikning istiqbollari bevosita sun‘iy intellekt va neyron tarmoqlarning rivojlanishi bilan bog‘liq. Kelajakda o‘zbek tilidagi barcha yozma meros va jonli nutq namunalarini o‘z ichiga olgan ulkan “Big Data” bazalari yaratilishi kutilmoqda. Bu mashina tarjimasini sifatini inson tarjimasini darajasiga ko‘tarish, o‘zbek tilida erkin muloqot qila oladigan “aqlli” virtual yordamchilarni takomillashtirish imkonini beradi. Shuningdek, til siyosati doirasida ona tilimizning raqamli xavfsizligini ta‘minlash, ya‘ni global tarmoqda o‘zbek tili qoidalari buzilishining oldini oluvchi avtomatik tahrir tizimlarini joriy etish muhim.

Raqamli inqilob davrida tilshunoslik fani o‘zining an‘anaviy qobig‘idan chiqib, yuqori texnologiyalar olamiga integratsiyalashdi. O‘zbek tilining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish butun jamiyatning vazifasidir. Zero, raqamli formatda boyitilgan til kelajak avlod uchun milliy o‘zlik va madaniy merosni saqlab qoluvchi eng mustahkam qalqon bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli dunyoda yashash – tilning mangu hayotiyligini ta‘minlash demakdir.

7. LINGVOPROMPTOLOGIYA

Raqamli inqilob davrida tilshunoslik fani an‘anaviy qobig‘idan chiqib, texnologiya bilan shu qadar uyg‘unlashib ketdiki, natijada mutlaqo yangi sohalar yuzaga kela boshladi. Ana shunday yo‘nalishdan biri – **lingvopromptologiya**(yoki prompt injiniringi), u inson va sun‘iy intellekt(SI) o‘rtasidagi muloqotni samarali tashkil etish, mashinaga tushunarli va aniq buyruqlar berish metodikasini o‘rganadi. Agar raqamli tilshunoslik tilni kompyuter tushunadigan formatga o‘tkazish bilan shug‘ullansa, lingvopromptologiya insonning lisoniy imkoniyatlarini mashina “tafakkuri”ga moslashtirish vazifasini bajaradi.

Lingvopromptologiyaning mohiyati tilning **subsantial-pragmatik** tabiatida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu yerda inson tomonidan yozilgan “prompt”(buyruq)– lisoniy imkoniyat bo‘lsa, sun‘iy intellekt tomonidan berilgan javob – nutqiy voqelik. Muloqotning samaradorligi insonning o‘z niyati(intensiyasi)ni nechoqlik aniq so‘z bilan ifodalashiga bog‘liq. Yaxshi tuzilgan prompt aniq kontekst, uslub, cheklov va kutilayotgan natija formatidan iborat bo‘ladi. Shu ma‘noda, lingvopromptologiya zamonaviy muloqot madaniyatining raqamli shaklidir.

(Davomi 4-betda.)



YANGI O‘ZBEKISTON: O‘ZBEK AMALIY TILSHUNOSLIGI RAVNAQI

(Davomi. Boshi 2-3-betlarda.)

Bugungi kunda lingvopromptologiya o‘zbek tili uchun ham o‘ta dolzarb. Sun‘iy intellekt tizimlari(masalan, ChatGPT, Gemini) o‘zbek tilining grammatik va semantik nozikliklarini to‘liq o‘zlashtirishi uchun inson tomonidan beriladigan ko‘rsatmalar professional darajada bo‘lishi shart. Bu jarayonda **semantik modellashtirish** metodlaridan foydalanish qo‘l keladi: so‘zlarning ma‘no qatlamlarini aniq ko‘rsatish orqali mashinadan mantiqiy va uslubiy jihatdan mukammal javob olish mumkin. Masalan, shunchaki “maqola yoz” deyish o‘rniga maqolaning auditoriyasi, ohangi va tayanch tushunchalarini belgilab berish promptologik mahoratdir.

Sohaning istiqbollari bevosita “aqlli” jamiyat qurish bilan bog‘liq. Kelajakda lingvopromptologiya har bir mutaxassis uchun zaruriy kompetensiyaga aylanadi. Raqamli tilshunoslik bazasida o‘zbek tili uchun mukammal prompt-shablonlar kutubxonasini yaratish, ta‘lim tizimida o‘quvchilarga sun‘iy intellekt bilan muloqot qilishning lingvistik odobini o‘rgatish ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu, o‘z navbatida, ona tili-mizning raqamli dunyoda texnologik taraqqiyotning drayveriga aylanishini ta‘minlaydi.

Demak, lingvopromptologiya tilshunoslikning matematik aniqlik va yozma nutq mahorati tutashgan nuqtasidir. U inson tilining cheksiz imkoniyatini algoritmlar dunyosiga olib kiradi. Raqamli asrda so‘z qadri mashina xotirasida qanchalik aniq aks etishi va foydali natija berishi bilan o‘lchanmoqda. Binobarin, lingvopromptologiyani o‘zlashtirish kelajak tilida gapirishni o‘rganish demakdir.

8. SEMANTIK MODELLASHTIRISH

Axborotlashgan jamiyatda lug‘atlar shunchaki so‘zning ma‘nosini tushuntiruvchi kitob emas, sun‘iy intellekt va mashina tarjimasi uchun poydevor vazifasini o‘tamoqda. O‘zbek tilshunosligida izohli va tarjima lug‘atlarini takomillashtirishning eng samarali yo‘li – so‘z ma‘nosini matematik va mantiqiy modellar asosida tasvirlash, ya‘ni **semantik modellashtirish**. Bu yondashuv til birliklarining ichki imkoniyatlari(substansiyasi) va ularning nutqdagi faoliyati(pragmatikasi) ni yagona tizimga birlashtiradi.

An‘anaviy lug‘atlarda ko‘p hollarda so‘zning izohi yoki tarjimasi beriladi, biroq uning boshqa so‘zlar bilan bog‘lanish imkoniyatlari, uslubiy chegaralari va kontekstual ma‘nolari to‘liq ochilmaydi. Semantik model-lashtirishda so‘z ma‘nosi mayda bo‘laklar – **semalar-ga** ajratiladi. Masalan, “olma” so‘zi uchun “meva”, “dumaloq”, “qizil/yashil”, “shirin/nordon” kabi semantik belgilar modelning asosi qilib olinadi. Bu metod uning atrofidagi ma‘no maydonini ham qamrab oladi.

Tarjima lug‘atlarini takomillashtirishda semantik modellashtirish o‘ta muhim ahamiyatga ega. Ikki xil til(masalan, o‘zbek va ingliz tillari) dunyoni turlicha modellashtiradi. Bir tildagi so‘z ikkinchi tilda aynan bitta so‘z bilan qoplanmasligi mumkin. Zamonaviy tipologik tarjima lug‘atlari yangi modellar asosida tuzil-ganda so‘zning o‘sha tildagi “xulq-atvori”(kollokatsi-yasi) ko‘rsatiladi. Bu mashina tarjimasi sifatini oshirish va til o‘rganuvchilarning nutqiy xatolarini kamaytirish-ga xizmat qiladi.

Izohli lug‘atlarda semantik modellashtirish so‘zlarning iyerarxik tizimini yaratishga yordam bera-di. Bunda so‘zlar turkumlararo emas, ma‘no guruh-lari (graduonimiya, sinonimiya) asosida joylashtiriladi. Bunday “aqlli” lug‘atlar foydalanuvchiga so‘zning na-faqat ma‘nosi, tildagi o‘rni, darajasi va ta‘sir kuchini ham anglatadi. Bu jarayon bevosita **korpus tilshunos-**



ligi bilan bog‘liq, modellar real matnlardagi millionlab misol asosida tekshiriladi va boyitiladi.

Demak, semantik modellashtirish o‘zbek lug‘atchiligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Bu usul tili-mizni raqamlashtirish, mukammal elektron lug‘atlar yaratish va o‘zbek tilining global ax-borot maydonidagi nufuzini mustahkamlashning asosiy vositasidir. Kelajakda bu modellar asosida yaratilgan “aqlli” lug‘atlar har bir til o‘rganuvchi va tadqiqotchi uchun eng yaqin ko‘makchiga aylanadi.

9. LINGVOPOLITOLOGIYA

O‘zbek lingvopolitologiyasining hozirgi holati va rivojlantirish strategiyalarini belgilash O‘zbekis-tondagi lisoniy vaziyatni ilmiy jihatdan tahlil va tad-qiq qilish sohaning eng dolzarb vazifalaridan. Mam-lakatdagi lisoniy vaziyat, lisoniy jamiyat va shaxs munosabati hamda tilning amaliy faoliyatini tadqiq qilish respublikadagi tillarning ijtimoiy-lisoniy ho-lati, o‘lkada istiqomat qiluvchi millatlar tili, necha foizi jonli tillar qatorida yashab kelayotgani, qo‘lla-nish doirasi, tarqalish hududi, madaniyatlar integrat-siyasida tutgan o‘rni va rivojlanish tendensiyasi kabi masalalarni xolis baholash imkoniyatini ta‘minlaydi. Shu bilan birga, bu tadqiqotlar mamlakatda mavjud millatlar tilining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish ham-da hozirgi kunda umuman qo‘llanmaydigan yoki o‘lik til-ga aylangan millatlar tilining sabablariga oydinlik kiritishga xizmat qiladi.

Garchi o‘zbek tilshunosligida til siyosati masa-lalari o‘rganib kelingan bo‘lsa-da, til menejmentiga oid tadqiqotlar faqat ayrim jihatlar bilan cheklan-gan va til boshqaruvi mexanizmlari bo‘yicha maxsus monografik ishlar hali amalga oshirilmagan. Hozirda davlat tili menejmentining sotsiolingvistik aspekti va huquqiy me‘yorlarining nazariy asoslari mutaxassis-lar tomonidan anglansa-da, fundamental materiallar til menejmenti nuqtayi nazaridan tavsiflanmagan, davlat tilining ijtimoiylashuv jarayonlarida qonun hujjatlar-i-ni ning roli va ijtimoiy o‘zgarishlarning til menejmentiga ta‘siri lingvistik tadqiqotlarda yetarlicha aks etmayapti. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi davlat tili me-nejmentining nazariy-metodologik asoslari va amaliy manbalarini belgilash, ijtimoiy o‘zgarishlarning ta‘siri-ni aniqlash hamda natijalarni ommalashtirish zarur.

Mamlakat til menejmentida tillar maqomini belgi-lash, til korpusi menejmenti va til marketologiyasini yo‘lga qo‘yishning ilmiy, texnologik va ijtimoiy tamo-yillari aniq dalillanishi hamda amalda joriy etilishi lozim. Davlat tili menejmenti hukumatning mamlakat hududida davlat tilini joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlari yig‘indisi sifatida

boshqa millatlar tillariga hurmat-ni saqlagan holda targ‘ib qilinishi va qonunchilikda real belgilanishi darkor. Til boshqaruvi oila, tash-kilot, davlat va xalqaro darajalarda bo‘lishi asoslanishi, bunda quyi, o‘rta va yuqori bosqichlar ajratilib, har bir bosqichda tegishli muassa-sa va foydalanuvchilarning o‘rni ilmiy asoslanishi kerak. Nihoyat til menejmentida tillarning funks-i-yasiga ko‘ra rasmiy, viloyat, xalqa-ro, ta‘lim, internet tili kabi maqom-larini belgilash tamoyillari ilmiy asoslanishi va qonunchilikda o‘z aksini topishi lozim.

10. LINGVODIDAKTIKA

O‘zbek tilshunosligining zamonaviy taraqqiyoti, xususan, substansial-pragmatik yo‘nalish va lingvodi-daktika sohalarining uyg‘unlashuvi ta‘lim jarayoniga mutlaqo yangicha yondashuvni olib kirdi. Bugungi kunda til o‘rgatish **verbal(lisoniy), kognitiv(bilish) va pragmatik(amaliy)** jihatlarining yaxlitligini ta‘min-lashdan iboratdir. Bu uchlikning birligi ta‘lim oluvchi-da hayotiy muloqot mahoratini shakllantiradi.

Verbal jihat ta‘limning poydevori, tilning tashqi qobig‘i – tovush, so‘z va gap qurilishi bilan bog‘liq. Bu bosqichda o‘quvchi tilning substansiyasi, ya‘ni boy lug‘at xazinasini va grammatik imkoniyatlarini o‘zlashti-radi. Biroq zamonaviy tilshunoslik tushunchasiga ko‘ra, verbal bilimning o‘zi yetarli emas. So‘zni bilish – hali muloqot qila olish degani emas. Shu sababli verbal daraja kognitiv jarayonlar bilan to‘ldirilishi shart.

Kognitiv jihat tilni tafakkur bilan bog‘laydi. Til o‘rganish – dunyoni qayta kashf etish demak. O‘quv-chi har bir so‘z ortida turgan tushuncha, milliy mentali-tetga xos bo‘lgan konseptlar(masalan, *andisha, sado-qat, mehmondo‘stlik*)ni tafakkur elagidan o‘tkazadi. Ta‘limda kognitiv yondashuv o‘quvchining mantiqiy fikrlashi, olamni lisoniy modellashtirish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu bosqichda til o‘rganuvchi so‘zning inson ongida qanday aks etishi, bilimlar tizimidagi o‘rnini anglab yetadi.

Pragmatik jihat – ta‘limning yakuniy va eng amaliy nuqtasi. Bu yerda “imkoniyat”(verbal va kogni-tiv bilimlar) “voqelik”ka(jonli nutq) aylanadi. Pragma-tik yaxlitlik o‘quvchiga til birliklarini muayyan vaziyat, so‘zlovchining niyati va tinglovchining holatiga qarab o‘rinli qo‘llashni o‘rgatadi. Muloqot samaradorligi aynan pragmatik mahoratga bog‘liq. Masalan, o‘quv-chining qayerda kesatq, lutf yoki rasmiy ohangdan foydalanishni bilishi pragmatik kompetensiyasidir.

Ta‘limda bu uch jihatning yaxlitligi **kommunikativ shaxsni** tarbiyalaydi. Agar ta‘limda faqat verbal jihat-ga urg‘u berilsa, o‘quvchi “jonli kitob” bo‘lib qoladi, lekin muloqotda qiynaladi. Agar kognitiv va pragmatik jihatlar e‘tibordan chetda qolsa, o‘quvchi tilning ruhi va ta‘sir kuchini his qilmaydi.

Xullas, zamonaviy darslik va metodikalar(masalan, o‘quv lug‘atchiligi va raqamli korpuslar yordamida) so‘zning shakli(verbal), mazmuni(kognitiv) va nutqda-gi vazifasi(pragmatik)ni bir butunlikda taqdim etishi lozim. Faqat shundagina til o‘rganish jarayoni shaxs-ni ng intellektual va ma‘naviy kamolotiga xizmat qiladi-gan chinakam muloqot san‘atiga aylanadi.

Baxtiyor MENGLIYEV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
filologiya fanlari doktori,
Husan KARVONLI,
“Ma‘rifat” gazetasi bosh muharriri

Milliy tilshunoslikda lisoniy voqelanish muammosi

O'zbek tilshunosligi o'zining ko'p yillik taraqqiyot yo'lida asosan tilning ichki struktur qurilishi, sathi va lisoniy imkoniyatlarini tizimli tavsiflashga e'tibor qaratib keldi. Til birliklarining grammatik tavsifi va lug'aviy tarkibini o'rganishda ulkan yutuqlarga erishilgan bo'lsa-da, tilning jamiyatdagi jonli o'rni hamda muloqot jarayonidagi amaliy ahamiyatini tadqiq etishda ma'lum bir ilmiy bo'shliq saqlanib qolayotgan edi. Bu tilni shunchaki qoidalar to'plami sifatida emas, jonli muloqot quroli o'laroq yangicha talqin qilishni taqozo etardi.

Bu boradagi tub burilish nuqtasi va eng muhim strategik qadam sifatida pro-

Yo'nalishning nazariy yangiligini belgilovchi eng muhim jihatdan biri – grammatik ma'noning nutqiy voqelanishida lisoniy va nolisoniy omillarning yaxlitligi masalasi. Tadqiqotlarda isbotlanganidek, muloqot jarayoni faqat quruq grammatik qoidalar yig'indisidan iborat emas. Aksincha, so'zlovchi va tinglovchining shaxsiy sifatleri, nutq maqsadi, muloqot taktikasi va strategiyasi kabi pragmatik omillar grammatik ma'noni nutqiy voqelikka aylantiruvchi asosiy mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi. Bunda "lisoniy va nolisoniy omillarning o'zaro nisbati qonuniyati" ochib berildi: ya'ni nutqda lisoniy vositalarning roli kuchaygan sari vaziyatli (nolisoniy) omillarning ta'siri pasayadi va, aksincha, muloqot sharoiti o'ziga xos



tilshunoslikning kompyuter lingvistikasi va sun'iy intellekt sohalari bilan hamnafas rivojlanayotganidan dalolat beradi.

IMKONIYAT VA VOQELIK YAXLITLIGI

fessor Baxtiyor Mengliyevning 2013-yil 15-mayda e'lon qilingan "Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi" nomli ilmiy maqolasi e'tirof etiladi. Maqola ilmiy jamoatchilik orasida keng qamrovli rezonans uyg'otdi, chunki u tilshunoslik markaziga butunlay yangi tadqiqot savoli – lisoniy imkoniyatning nutqiy voqelikka aylanish qonuniyatlarini o'rganish muammosini qo'ydi.

Olim tomonidan ilgari surilgan substansial-pragmatik yondashuv tilni "imkoniyatdan voqelikka" tamoyili asosida o'rganish metodologiyasiga tayanadi. Bunda ona tili imkoniyatidan muloqot jarayonida samarali foydalanish mexanizmlarini yaratish asosiy maqsad etib belgilandi. Bu muammoning qo'yilishi jamiyatning muloqot madaniyati va ta'lim tizimi oldidagi o'ta dolzarb ehtiyojlaridan kelib chiqqan edi. Tilning imkoniyat va voqelik mushtarakligi sifatida tadqiq etilishi o'zbek tilshunosligining hozirgi holatini yangi, innovatsion bosqichga olib chiqdi. Shunday qilib, muloqot samaradorligini ta'minlash va nutqiy jarayonlarni modellashtirish kabi kechiktirib bo'lmas ijtimoiy-lingvistik zarurat o'zbek tilshunosligida markaziy ilmiy muammo sifatida qat'iy belgilandi.

Substansial-pragmatik paradigmaning konseptual asosi

Substansial-pragmatik tilshunoslik o'zbek filologiyasida yangi yondashuv-gina emas, mustahkam nazariy poydevori hamda o'ziga xos terminologik apparatiga ega yaxlit ilmiy tizim sifatida shakllandi. Har qanday ilmiy yo'nalishning hayotiylik mavjud bilimlar tizimiga olib kirgan semantik yangiliklari va kategoriyalari bilan belgilanadi. Bu borada substansial-pragmatika yo'nalishi tilni dinamik jarayondagi "imkoniyat va voqelik mushtarakligi" sifatida talqin qiluvchi yangi konseptual modelni yaratdi. Model doirasida til va nutq munosabatlari an'anaviy qarashlardan farqli o'laroq, muloqotning oltin qoidalari hisoblangan inson omili va pragmatik xususiyatlar bilan uzviy bog'liq holda tushuntiriladi.

bo'lganda lisoniy vositalarning tildagi birlamchi vazifasi susayadi.

Sohaning tushunchalar tizimi, ayniqsa, "substansial-pragmatizm" tushunchasining o'zbekona modeli orqali jahon pragmatolingvistikasidan tubdan farqlanishi bilan ahamiyatlidir. Dunyo pragmatolingvistikasi, asosan, tayyor nutqning samaradorligiga e'tibor qaratga, o'zbek substansial-pragmatizmi tilning ichki imkoniyatlar xazinasini va ularning yuzlab muayyan voqelanish shakllarini ochishga yo'naltirilgan. Shu maqsadda substansial-pragmatik terminlarning maxsus lug'ati ishlab chiqildi va bu ilmiy kategoriyalar o'zbek tili milliy hamda ta'limiy korpuslariga elektron shaklda integratsiya qilindi. Va ilmiy muhokama maydoniga inson nutqini geterogen sistema sifatida tavsiflovchi yangi kategoriyalar kirib keldi hamda o'zbek tilshunosligining nazariy dunyoqarashini tubdan kengaytirdi.

Lisoniy tanlov va darajalanish metodologiyasi

Substansial-pragmatik yo'nalish o'zbek tilshunosligiga til birliklarini o'rganishning o'ziga xos, aniq metodologik usullarini ham shakllantirdi. Yangi yo'nalishning metodologik asosi sifatida "lingvistik graduonimiya" (darajalanish) tamoyili qat'iy belgilandi. Bu metod lisoniy imkoniyatlarning nutqda voqelanishini til birliklarining muloqot jarayonida ma'lum bir daraja (kuchli-kuchsiz, ta'sirchan-mo'tadil) bo'yicha joylashishini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Til imkoniyatining nutqiy voqelanishi fonetik, leksik va grammatik omillar hamda insonning shaxsiy, makon va zamon omillari hamkorligidan iborat murakkab yaxlitlikdir.

Bu metodologiyaeng e'tiborli jihatidan biri – lisoniy imkoniyatning nutqiy voqelanishida "tanlov qonuniyati" ning muqarrarligini ochib bergani. Bu qonuniyatga ko'ra, so'zlovchi ma'lum bir vaziyat yoki nutqiy sharoit uchun eng muvofiq til birligini tanlashda ularning darajalanishi, ya'ni qaysi bir birlik berilgan holatda ta'sirchanroq yoki o'rinliroq

ekanligiga tayanadi. Bu jarayon til tizimidagi imkoniyatlar ichidan eng maqbulini saralab olishning ilmiy asoslangan mexanizmidir. Shu nuqtayi nazardan, har bir so'zning nutqdagi o'rni beqiyos ekanligi va u ma'lum bir pragmatik yuk bilan voqelanishi metodologik jihatdan isbotlandi.

Metodologik yangilanish, shuningdek, tilni o'rganishda yangicha tadqiq tamoyillarini joriy etdi. Dialektika va sinergetikaning qonun hamda kategoriyalari o'zbek tilini imkoniyat va voqelik yaxlitligi sifatida o'rganishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qildi. Ochiq sistema nazariyasining umumfan metodologiyasi sifatida qo'llanishi tilshunoslik tahlillarining aniqligi va dalillilik darajasini yuqori bosqichga ko'tardi. Bunday tizimli yondashuv lisoniy birliklarning nutqdagi faollashish jarayonini mantiqiy-izchil tushuntirish imkonini yaratdi.

Fanlararo integratsiya va raqamli texnologiyalar

Substansial-pragmatik tilshunoslik an'anaviy filologiya chegaralaridan chiqib, bir necha fanning kesishgan hududida shakllangani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning metodologik asosi sifatida dialektika va sinergetika qonuniyatlarining tanlanishi tilni o'rganishda falsafiy chuqurlikni ta'minlagan bo'lsa, "ochiq sistema nazariyasi"ning umumfan metodologiyasi sifatida qo'llanishi tadqiqot predmetini kengroq nuqtayi nazardan tushuntirish imkonini berdi. Inson nutqi turlicha tabiatli, ya'ni geterogen sistema ekanligi hamda tarkibi turli nolisoniy omil bilan boyishi bu yo'nalishni psixologiya va sotsiologiya fanlari bilan uzviy bog'laydi. Muloqot jarayonida so'zlovchining dunyoqarashi, bilim darajasi va qiziqishlarining hisobga olinishi lingvistik tadqiqotlarga insonshunoslik ruhini olib kirdi.

Zamonaviy globallashtirish va raqamli transformatsiya davrida bu ilmiy yutuqlarni axborot texnologiyalari bilan integratsiyalash o'ta muhim strategik vazifaga aylandi. Bu jarayon

Amaliy tatbiq va istiqbolli natijalar

Substansial-pragmatik tilshunoslik doirasida erishilgan qimmatli natijalar bugungi kunda nazariy ahamiyat kasb etibgina qolmasdan bevosita yosh avlodni tarbiyalash hamda o'qitish tizimida ham o'zining yorqin amaliy ifodasini topmoqda. Yo'nalish doirasida amalga oshirilgan fundamental tadqiqotlar o'zbek tilshunosligining ijtimoiy amaliyot bilan bog'lanishini ta'minladi. Ayniqsa, ilmiy xulosalarning xalq ta'limiga joriy etilishi ona tili ta'limi metodikasida yangi sahifa ochdi. Tadqiqotlar natijasida to'plangan boy ilmiy va amaliy materiallar yurtimizdagi uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy tarzda o'qitilib kelinayotgan "Ona tili" va "Hozirgi o'zbek adabiy tili" kabi fundamental o'quv kurslarini zamonaviy talablar asosida qayta ko'rib chiqishda substansial-pragmatik ma'lumotlardan unumli foydalanildi. Bu yondashuv talabalarning til imkoniyatlaridan nutq jarayonida to'g'ri, o'rinli va unumli foydalanish ko'nikmalarini yuksaltirishga mustahkam zamin yaratmoqda. Bu chuqur izlanishlar asosida tilning bevosita muloqot madaniyati va uning samaradorligini ta'minlash mexanizmlarini o'zida jamlagan yangi avlod akademik grammatikalari hamda o'quv-uslubiy qo'llanmalari yaratildi.

Yo'nalishning istiqboli jahon ilm-faniga integratsiyalashuv salohiyati bilan ham belgilanadi. O'zbek modeli Yevropada rivojlangan an'anaviy pragmatolingvistikadan farqli o'laroq, tilning ochilmagan imkoniyatlar xazinasini va chuqur milliy ildizlariga tayanishi bilan ajralib turadi. Bugungi substansial-pragmatikaga oid terminlar lug'atlarining elektron, mobil va onlayn turlari yaratilayotgani, milliy va ta'limiy korpuslarga tizimli ravishda joylashtirilayotgani sohaning raqamli kelajagini ta'minlamoqda. Erishilgan yutuqlar muloqotda lisoniy birliklarning semantik strukturasi va pragmatik xususiyatlaridan foydalanishning amaliy samaradorligiga xizmat qiluvchi yangi monografiyalar bilan muntazam boyib bormoqda.

Bashorat BAHRIIDINOVA,
filologiya fanlari doktori,
professor



O'ZBEK KORPUS TILSHUNOSLIGI

Strategik ehtiyoj va muammo

O'zbek tilshunosligi uzoq o'n yilliklar davomida til birliklarini faqat nazariy tavsiflash, ichki grammatik qoliplarini belgilash hamda statik holatdagi tizimini o'rganish bilan cheklanib keldi. Garchi lisoniy tizimning ichki mexanizmlari fundamental tadqiq etilgan bo'lsa-da, tilning jonli iste'molda, ya'ni real nutqiy vaziyat va matnlarda qanday yashayotganini statistik hamda empirik jihatdan dalillashda ma'lum bir ilmiy bo'shliq mavjud edi. Bu bo'shliq tildagi nazariy qoidalar bilan ularning nutqdagi amaliy ko'rinishi o'rtasidagi uzilishni yuzaga keltirdi. Bu uzilishni bartaraf etish va o'zbek tilini raqamli asrning global talablariga moslashtirish uchun butunlay yangi bir yondashuv zarur edi.

"Tilda imkoniyat va voqelik mushtarakligi" g'oyasi bu bo'shliqni to'ldirishda tub burilish yasadi. Konsepsiya tilga dinamik jarayon sifatida qarashni o'rgatdi. Korpus tilshunosligi aynan tilning "imkoniyat"(lisoniy tizim) qismidan "voqelik"(nutqiy matn) qismiga o'tishdagi murakkab qonuniyatlarni o'rganishni o'z tadqiqot markaziga qo'ydi. Endilikda tadqiqot obyekti shunchaki olimlar tomonidan to'qilgan sun'iy misollar emas, tildagi barcha lisoniy imkoniyatlarni o'zida jamlagan, millionlab so'zlardan iborat ulkan raqamli matnlar massivi – korpus bo'lib xizmat qiladi.

Bu yondashuv tilshunoslikning hozirgi holatidan kelib chiqqan holda o'zbek tilining milliy va ta'limiy korpuslarini yaratishni kechiktirib bo'lmas ijtimoiy-lingvistik zarurat sifatida kun tartibiga qo'ydi. Milliy korpus – millatning raqamli xotirasi, tilimizning tarixiy taraqqiyotidan tortib bugungi kundagi barcha uslubiy jilolarini o'zida aks ettiradi. Ta'limiy korpus o'quvchi va talabaga til o'rganishda real kontekstlarni taqdim etuvchi, lug'at boyligini oshirishda statistik ma'lumotlarga tayanuvchi noyob instrumentdir.

Substansial-pragmatik yo'nalish doirasida milliy korpus yaratish muammosi milliy o'zlikni raqamli makonda muhrlash sifatida talqin etiladi. Matnlarning korpusga kiritilishi va ularning tegishli meta-ma'lumotlar bilan annotatsiyalanishi tilning substansiyasini nutqiy pragmatika bilan bog'laydi. Bu, o'z navbatida, o'zbek tilining raqamli intellektini shakllantirish, sun'iy intellekt tizimlariga ona tilimizni o'rgatish va global axborot almashinuvida tilimizning nufuzini oshirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Korpus yaratishdagi bugungi muammolar va ularning yechimi o'zbek tilshunosligining kelajakdagi strategik yo'nalishini belgilab beradi.

Korpusning konseptual modeli

Korpus tilshunosligi tilning yashash tarzini raqamli formatda aks ettiruvchi murakkab nazariy kategoriya va tushunchalar tizimidir. Substansial-pragmatik yo'nalish doirasida korpusga tilning "raqamli voqelanish modeli" sifatida qaraladi. Bu model an'anaviy tilshunoslik tushunchalarini yangi mazmun bilan boyitib, mavjud ilmiy tilga yangi semantik qatlam olib kirdi. Va ilmiy muhokama uchun mutlaqo yangi kategoriyalar va tahlil modellari paydo bo'ldi.

Yo'nalishning nazariy yangiligini belgilovchi asosiy tushunchadan biri – meta-ma'lumot va lingvistik annotatsiya tizimidir. An'anaviy tilshunoslikda so'z kontekstidan ajralgan holda o'rganilgan bo'lsa, korpus modelida har bir so'z ijtimoiy-pragmatik pasportiga ega bo'ladi. Ya'ni korpusdagi matn orqali so'zning kim tomonidan (yoshi, jinsi, kasbi), qachon va qaysi uslubda qo'llanganini avtomatik aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Bu so'zning substansiyasi(ichki mohiyati)ni nutqdagi pragmatik ko'rinishlari orqali ochib berishga xizmat qiluvchi yangi izohlash modelini shakllantirdi.

Konseptual modelning yana bir muhim ustuni – konkordans va kollokatsiya tushunchalari. Korpus lingvistikasida so'zning ma'nosi u bilan muntazam ravishda yonma-yon keluvchi qo'shnilar(kontekst) orqali aniqlanadi. Ilgari surilgan "imkoniyat va voqelik

mushtarakligi" g'oyasi aynan shu yerda o'z isbotini topadi: tilda mavjud potensial ma'no(imkoniyat) korpusdagi minglab matnda real qo'llanish(voqelik) shakllarini topadi. Korpus modeli yordamida tilshunoslar ilk bor "til qoidasi" bilan "til odati"(uzus) o'rtasidagi farqni raqamlar asosida ko'rish imkoniga ega bo'ldilar.

O'zbek tilshunosligida "diaxronik korpus", "parallel korpus" va "mualliflik korpusi" kabi yangi ilmiy kategoriyalar paydo bo'ldi. Bu tushunchalar tizimi jahon pragmalingsvistikasidan farqli o'laroq, o'zbek tilining boy ichki xazinasi va grammatik qurilishini raqamli algoritimga aylantirish imkonini berdi. Korpusning konseptual modeli tilni doimiy harakatdagi, o'zgaruvchan va jonli kognitiv sistema sifatida tushuntirish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, o'zbek tilining raqamli intellektini shakllantirish uchun mustahkam nazariy poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Metodologik transformatsiya

O'zbek korpus tilshunosligining shakllanishi tilni o'rganishning fundamental metodologiyasini ham tubdan o'zgartirdi. Yangi ilmiy yo'nalish faqat g'oyalar bilan cheklanib qolmay, tadqiqot usullarini raqamli va empirik instrumentlar bilan boyitdi. Substansial-pragmatik tilshunoslik yo'nalishining metodologik asosi korpus tilshunosligida o'zining amaliy in'ikosini topdi. Bu yerda asosiy o'zgarish – subyektiv tavsiflashdan obyektiv, statistik dalillashga o'tishda namoyon bo'ladi.

Bu metodologik transformatsiyaning o'zagida "lingvistik graduonimiya"(darajalanish) tamoyili yotadi. An'anaviy metodlarda so'zning ma'nosi olimning lisoniy sezgisi(intuitsiyasi) asosida belgilangan bo'lsa, korpus metodologiyasida so'zning tildagi o'rni uning qo'llanish chastotasi(frequency) va boshqa so'zlar bilan birikish imkoniyatlari orqali aniqlanadi. Korpus dasturlari(AntConc, Sketch Engine va boshqalar) yordamida tilshunoslar so'zning nutqdagi real harakati, qaysi uslubda necha marta ishlatilganini va qanday pragmatik vazifani bajarayotganini aniq raqamlar(foizlar) asosida tahlil qiladilar.

Tadqiqot metodlarining yangicha tanlanishi ilmiy tahlilning aniqligi va dalilliligi darajasini mislsiz darajada oshirdi. Endilikda "bu so'z tilda ko'p ishlatiladi" degan subyektiv xulosa o'rmini "ushbu birlik 1 million so'zdan iborat matnlar massivida 450 marta uchraydi va asosan badiiy uslubga xos" degan aniq fakt egalladi. Shuningdek, mavjud metodlar yangi shaklda – avtomatik qidiruv, statistik modellashirish va lisoniy bashorat qilish ko'rinishida qo'llanmoqda. Bu metodlar tilning "imkoniyat" qismini "voqelik" qismi bilan matematik aniqlikda bog'lash imkonini berdi.

Metodologik yangilanish, ayniqsa, konkordans tahlili orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Olim bitta tugmani bosish orqali so'zning yuzlab matnlardagi "muhitini" ko'ra oladi. Bu til birliklarining substansiyasi(mohiyati)ni nutqiy pragmatikasi orqali ochib berishda asosiy metodologik qurol bo'lib xizmat qiladi. Bunday tizimli yondashuv lisoniy birliklarning nutqdagi faollashish jarayonini mantiqiy-izchil tushuntirish imkonini yaratdi va o'zbek tilshunosligini zamonaviy dunyo fani darajasiga olib chiqdi.

Lingvistika, AT va kognitiv fanlar integratsiyasi

O'zbek korpus tilshunosligi mohiyatiga ko'ra bir necha fan kesishgan hududda shakllanadi va taraqqiy etadi. Substansial-pragmatik yo'nalishning eng kuchli jihatidan biri shundaki, tadqiqot predmetini kengroq nuqtayi nazardan tushuntirish uchun tilshunoslikni matematika, informatika, psixologiya va kognitiv fanlar bilan uzviy bog'laydi. Bunday yondashuv tilni murakkab axborot tizimi va inson intellektining mahsuli sifatida tadqiq etish imkonini beradi.



Tilshunoslikning informatika va sun'iy intellekt(SI) sohalar bilan bog'lanishi natijasida o'zbek tili uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) texnologiyalari rivojlanmoqda. Korpus ma'lumotlari sun'iy intellekt tizimlariga o'zbek tilining grammatik qurilishi va semantik jilolarini "o'rgatish"da asosiy oziqa vazifasini o'taydi. Bu yerda matematik statistika metodlari so'zlarning matndagi uchrash ehtimolligini hisoblasa, lingvistik tahlil ularning ma'noviy bog'lanishlarini izohlab beradi. Bunday fanlararo hamkorlik natijasida o'zbek tili raqamli dunyoda "tirik" tilga aylanadi – u kompyuter xotirasida jonli mulqot birligi sifatida aks etadi.

Kognitiv psixologiya va psixolingvistika bilan bog'liqlik korpus tilshunosligining inson omili bilan bog'liq jihatlarini ochib beradi. Korpusdagi statistik ko'rsatkichlar(masalan, so'zlarning qo'llanish chastotasi) inson xotirasida so'zlarning qanday iyerarxik tartibda joylashishi va mulqot jarayonida qanchalik tez faollashishini modellashirish imkonini beradi. Bu jarayonda lisoniy birliklarni nutqiy vaziyatlarga ko'ra darajalash g'oyasi kognitiv modellarni qurishda metodologik tayanch bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, korpus tilshunosligi sotsiolingvistika va lingvokulturologiya bilan ham mustahkam bog'langan. Matnlarning meta-ma'lumotlar bilan annotatsiyalanishi turli ijtimoiy qatlam(yosh, jins, kasb-hunar)lar nutqidagi farqlarni aniq raqamlar orqali ko'rish imkonini beradi. Bu o'zbek mulqot madaniyatining raqamli manzarasini chizishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu tariqa o'zbek korpus tilshunosligi zamonaviy fanlararo integratsiyaning markaziga aylanib, tilimizning raqamli nufuzini va intellektual salohiyatini global miqyosda ko'rsatib bermoqda.

Raqamli til siyosati va kelajak strategiyasi

O'zbek korpus tilshunosligi millatning raqamli kelajagini belgilovchi ulkan amaliy istiqbol ham. Substansial-pragmatik yondashuv korpus ma'lumotlarini amaliyotga tatbiq etish orqali ona tili ta'limi, leksikografiya va sun'iy intellekt sohalarida inqilobiy o'zgarishlarni boshlab berdi. Yo'nalishning amaliy qiymati, eng avvalo, o'zbek tilining milliy va ta'limiy korpuslari bazasida yaratilayotgan intellektual mahsulotlarda ko'rinadi.

Kelajakda korpus ma'lumotlari asosida o'zbek tili uchun mukammal avtomatik tarjima tizimlari, imlo tekshirgichlar(spell-checkers) va aqlli qidiruv dvigatellari yaratiladi. Bu o'zbek tilining global axborot makonidagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Ta'lim tizimida korpus statistikasi asosida "o'quvchi-markazli" darsliklar va lug'atlar yaratilishi ona tili o'qitish sifatini yangi bosqichga ko'taradi. Endilikda o'quvchilar so'zlarni quruq yodlamay, korpus taqdim etgan real matnlar orqali ularning nutqdagi jonli harakatini o'rganadilar.

Ilmiy istiqbol nuqtayi nazaridan, korpus tilshunosligi kelajakdagi tadqiqotlar uchun metodologik poydevor vazifasini o'taydi. U tilshunoslar oldida yangi savollarni ochadi: o'zbek tili raqamli muhitda qanday transformatsiyaga uchramoqda? Tilimizning milliy korpusi jahon tillari korpuslari bilan qaysi parametrlarda integratsiyalasha oladi? Bu ilmiy yo'nalish keyingi avlod izlanishlari uchun milliy o'zlikni raqamli asrda saqlab qolish va rivojlantirishning strategik quroli bo'lib xizmat qiladi.

Shahlo HAMROYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor

SUBSTANSIAL-PRAGMATIK ASOSLI O'QUV LUG'ATCHILIGI

O'quv leksikografiyasida yangi metodologik paradigma

O'zbek tilshunosligi taraqqiyot bosqichlarida leksikografiya, ya'ni lug'atchilik sohasida ulkan tajriba va fundamental an'analarni shakllantira oldi. Biroq yillar davomida bu sohadagi asosiy e'tibor akademik, keng qamrovli izohli va terminologik lug'atlar yaratishga qaratildi. Bu an'anaviy yondashuv natijasida vujudga kelgan lug'atlarning tili va tuzilishi o'ta murakkab, asosan, mutaxassislar yoki yuqori malakali til sohiblari uchun mo'ljallangan edi. Aynan mana shu nuqtada o'zbek tilshunosligi va pedagogik amaliyot o'rtasida o'ziga xos ilmiy bo'shliq yuzaga keldi: maktab o'quvchilarining yosh xususiyatlari, kognitiv salohiyati va kundalik muloqot ehtiyojlarini to'liq qondira oladigan maxsus o'quv lug'atlari yaratish masalasi uzoq vaqt davomida dolzarb va yechimi kutilayotgan muammo bo'lib qolaverdi.

Mavjud akademik lug'atlardagi ilmiy terminologiyaning haddan tashqari ko'pligi, so'z izohlarining o'quvchi yoshiga mos kelmasligi va muloqotdagi amaliy vaziyatlarni inobatga olmasligi ta'lim jarayonida qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. O'quvchi so'zning qaysi vaziyat, qanday strategiya va taktika asosida qo'llash kerakligini anglashga ehtiyoj sezadi. Yangi ilmiy yo'nalish – substansial-pragmatik leksikografiyaning maydonga chiqishi aynan shu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan dadil qadam bo'ldi.

Bu yo'nalish doirasida tadqiqotning markaziga maktab darsliklarida faol qo'llanilgan lug'aviy birliklar bazasi qo'yildi. Tadqiqot savollari endilikda so'zni muloqot jarayonining amaliy samaradorligini ta'minlash, o'quvchining lug'at boyligini boyitish va unda muloqot madaniyatini shakllantirishga yo'naltirildi. Bu yondashuv o'quv leksikografiyasini an'anaviy takrorlardan xalos etib, mutlaqo yangi – inson omili va muloqot ehtiyojlariga asoslangan nuqtayi nazardan talqin qilish imkonini berdi. Tilning imkoniyatlari va nutqiy voqelik mustahkamligini o'quv lug'atlarida aks ettirish kechiktirib bo'lmas lingvodidaktik zarurat sifatida asoslandi.

O'quv lug'atchiligining konseptual yangilanishi

O'quv leksikografiyasining mustaqil va yangi ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi muayyan nazariy qarashlar majmuasi hamda o'ziga xos tushunchalar tizimiga tayanadigan yaxlit bir konseptual strukturadir. An'anaviy lug'atchilikda so'zlar uzoq vaqt davomida faqat statik holatdagi lisoniy birliklar, ya'ni qat'iy qoliplarga solingan ma'nolar yig'indisi sifatida tavsiflab kelindi. Biroq substansial-pragmatik yondashuv bu qarashlarni tubdan o'zgartirdi. Endilikda o'quv lug'atchiligida “grammatik ma'no, lisoniy va pragmatik omillar

yaxlitligi” tamoyili markaziy o'ringa chiqdi. Bu yondashuv o'zbek tili leksikografiyasiga mutlaqo yangi semantik qatlam olib kirdi va muloqot jarayonini modellashtirishning nazariy poydevorini yaratishga xizmat qildi.

Yo'nalishning nazariy yangiligini belgilovchi eng fundamental tushunchadan biri – **“imkoniyat va voqelik mustahkamligi”** g'oyasi. Konsepsiya-ga ko'ra, o'quv lug'atlari endi so'zning tilda mavjud imkoniyatlarini nutqdagi aniq voqelanishi bilan uzviy bog'lagan holda tushuntira boshladi. Ya'ni lug'at o'quvchiga so'zning nutqiy jarayonda qanday “tirilib”, muayyan bir ma'no va jilo kasb etishini o'rgatadi. Bu o'quvchi uchun tilni qoidalar majmuasidan jonli muloqot quroliga aylantiradi.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, muloqot jarayoni murakkab **nutq strategiyasi va taktikasi**, nutq odobi hamda muloqot madaniyati elementlarining o'zaro hamkorligidir. O'quv lug'atchiligining yangi terminologik tizimiga ko'ra, muloqot samaradorligi faqat lisoniy birlik (grammatik vosita)larga bog'liq emas. Bu jarayon so'zlovchi va tinglovchining shaxsiy sifatleri, bilim darajasi, yosh xususiyatlari va aniq nutq maqsadi kabi **nolisoniy omillar** bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, bitta so'z turli vaziyat(rasmiy yoki norasmiy muhit)da turli pragmatik yuk bilan voqelanadi. Yangi avlod o'quv lug'atlari aynan mana shu nozik farqlarni o'quvchiga ilmiy va sodda tarzda yetkazib berishni maqsad qiladi.

Ilmiy muhokama maydonida “substansial-pragmatik leksikografiya”, “graduonimik qatorlar”, “muloqotiy taklif” kabi mutlaqo yangi kategoriya va tahlil modellari paydo bo'ldi. Bu tushunchalar tizimi jahon pragmatikologiyasidan farqli o'laroq, o'zbek tilining boy ichki xazinasini – so'zning substansiyasi(mohiyati)ga tayangan holda muloqot ehtiyojlarini qondiradi. Bunday nazariy yangilanish maktab o'quvchilarida lisoniy birliklarni vaziyatga ko'ra ongli ravishda tanlash(tanlov qonuniyati) ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, o'zbek tilshunosligida inson omili va muloqot ehtiyojlariga asoslangan yangi bir ilmiy tilning qaror topishiga olib keldi.

O'quv lug'atchiligining metodologik yangilanishi

O'quv leksikografiyasining zamonaviy qiyofasini belgilovchi uchinchi muhim tamoyil – tadqiqot metodlarining tubdan yangilanishi. Yo'nalish shunchaki nazariy g'oyalar bilan cheklanib qolmay, til birliklarini o'rganish va lug'at maqolalariga joylashtirishning o'ziga xos usullarini boyitdi. Bu borada substansial-pragmatik tilshunoslik yo'nalishi o'quv lug'atchiligi uchun fundamental metodologik baza vazifasini o'tadi. Olim rahbarligida tildagi lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini tadqiq etishda yangi bir vosita – lingvis-

tik graduonimiy(darajalanish) metodi amaliyotga keng joriy etildi.

An'anaviy lug'atlarda so'zlar asosan alifbo tartibida yoki o'zaro bog'liq bo'lmagan ma'nolar yig'indisi sifatida berilgan bo'lsa, substansial-pragmatik tilshunoslik metodologiyasiga ko'ra, o'quv lug'atlarida birliklar “tanlov qonuniyati” asosida tahlil qilinadi. Bu o'quvchiga so'zning boshqa sinonimik yoki turdosh birliklar qatorida tutgan o'rni, ya'ni ma'no va ta'sirchanlik jihatidan kuchli yoki kuchsizlik darajasi ko'rsatib beriladi. Bunday usul ilmiy tahlilning aniqligi va dalilliligi darajasini oshiradi, chunki o'quvchi endi so'zni shunchaki yodlamaydi, muayyan nutqiy vaziyat uchun eng maqbulini tanlash mexanizmini o'rganadi.

Metodologik yangilanish jarayonida dialektikaning ochiq sistema nazariyasi umumfan metodologiyasi sifatida qo'llandi. Bu o'quv lug'atini statik (o'zgarmas) qolipdan dinamik(harakatdagi) tizimga aylantirdi. Tadqiqot metodlari o'quvchining muloqot ehtiyojlariga moslashtirildi: lug'at tuzishda so'zning tildagi “substansiyasi”(asosi) va uning nutqdagi “pragmatikasi”(amaliy qo'llanishi) birlamchi mezon qilib olindi. Bu metodologik soha o'zbek o'quv leksikografiyasini jahon tilshunosligidagi eng ilg'or va tizimli yo'nalishlar qatoriga olib chiqdi.

O'quv leksikografiyasi va fanlararo integratsiya

Zamonaviy o'quv lug'atchiligi faqat tilshunoslik doirasida qolib ketmasdan bir necha fan kesishuvida shakllanadi va rivojlanadi. Substansial-pragmatik yo'nalishning eng kuchli jihatidan biri shundaki, tadqiqot predmetini kengroq nuqtayi nazardan tushuntirish uchun pedagogika, psixologiya va informatika fanlari bilan uzviy bog'lanadi. O'quv lug'ati so'zlar to'plamigina emas, o'quvchining kognitiv(bilish) jarayonlarini faollashtiruvchi fanlararo murakkab instrument.

Yo'nalish doirasida inson omili markazga qo'yilishi natijasida lug'atchilik psixolingvistika bilan birlashdi. O'quvchining yosh xususiyatlari, so'zni qabul qilish darajasi va xotirada saqlash mexanizmlari hisobga olinib, lug'at maqolalari “o'quvchi-markazli” modelga o'tkazildi. Shu bilan birga, muloqot jarayonidagi nolisoniy omillar – so'zlovchining ruhiy holati, ijtimoiy muhit va madaniy kontekstni o'rganish orqali lug'atlar sotsiolingvistik va lingvokulturologik mazmun bilan boyitildi. Bu o'quvchiga so'zning ortidagi milliy-madaniy qatlamni ham anglashga yordam beradi.

Globalashuv va raqamli transformatsiya davrida bu ilmiy qarashlarni axborot texnologiyalari bilan integratsiyalash o'ta muhim strategik ahamiyat kasb etmoqda. Substansial-pragmatik model asosida o'quv lug'atlarining yangi avlodi – elektron, mobil va onlayn

formatlari yaratilmoqda. Mazkur jaryonda korpus lingvistikasi metodlaridan foydalanilib, so'zlarning real matnlardagi qo'llanish chastotasi va kontekstlari aniqlanadi.

An'anaviy qog'oz lug'atlar o'rmini multimediaga asoslangan, interaktiv va gamifikatsiya(o'yinlashtirish) elementlari bilan boyitilgan raqamli platformalar egallamoqda. Bu texnologik yondashuv o'zbek tili ta'limiy korpuslari bazasi bilan uzviy integratsiyalashgan holda, har bir foydalanuvchiga individual o'quv yo'lini(personalizatsiya) taklif etish imkonini beradi. Shu tariqa, o'zbek o'quv leksikografiyasi zamonaviy yechimlar orqali til o'rganuvchilar uchun qulay va intellektual muhit yaratmoqda.

Ta'lim tizimidagi yangi bosqich

Substansial-pragmatik yo'nalish doirasidagi o'quv leksikografiyasi mam-lakatimiz ta'lim tizimini tubdan isloh qilishga qaratilgan ulkan amaliy ahamiyatga ega loyihadir. Yo'nalish doirasida erishilgan ilmiy xulosalar bugungi kunda o'zbek maktablarida ona tili o'qitish metodikasini yangi bosqichga olib chiqdi. Tadqiqotlar natijasida yaratilgan o'quv lug'atlari o'quvchilarning ijtimoiy hayotdagi muloqot samaradorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Sohaning amaliy istiqbolini belgilovchi eng muhim jihatdan biri – uzluksiz ta'lim darsliklarining substansial-pragmatik tamoyillar asosida qayta shakllantirilishi. Yangi avlod darsliklarida lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishi, tanlov qonuniyati va muloqot strategiyalari markaziy o'ringa qo'yildi. Bu o'quvchilarda tilni jonli va ta'sirchan muloqot quroli sifatida his qilish ko'nikmasini shakllantirdi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida ham “Hozirgi o'zbek adabiy tili” va “Amaliy tilshunoslik” kurslari ushbu metodologik bazaga tayanib takomillashtirilmoqda.

Sohaning ilmiy istiqboli milliy o'quv leksikografiyasini xalqaro miqyosdagi raqamli standartlarga olib chiqish bilan bog'liq. Hozirda yaratilayotgan elektron va onlayn o'quv lug'atlari o'zbek tili ta'limiy korpusining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu jarayon kelajakda sun'iy intellekt tizimlariga o'zbek tilining pragmatik xususiyatlarini(so'zlarni vaziyatga qarab to'g'ri tanlash, nutqiy darajalanishni farqlash) o'rgatishda metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytganda, subpragmatik ilmiy yo'nalish o'zbek tilshunosligini statik holatdan dinamik taraqqiyot yo'liga olib chiqdi. O'quv lug'atchiligi bu yo'nalishning amaliy ko'zgusi sifatida yosh avlodning til boyligini oshirish, milliy tafakkurini yuksaltirish va raqamli dunyoda o'zbek tilining munosib o'rni ta'minlashda asosiy tayanch bo'lib qoladi.

Javlon IBROHIMOV,
filologiya fanlari doktori, professor

MILLIY RUH VA TIL UYG‘UNLIGI TALQINI

TIL VA RUH YAXLITLIGI

O‘zbek tilshunosligi yillar davomida tilga faqat axborot almashish quroli, qat’iy grammatik qolip va lisoniy birliklar yig‘indisi sifatida qarab keldi. Bunday yondashuv tilning tashqi tizimini mukammal o‘rganish imkonini bergan bo‘lsa-da, ichki mohiyati – millat ma’naviyatini shakllantiruvchi substansiyasi hamda bu mohiyatning nutqdagi amaliy ta’siri, ya’ni pragmatikasi e’tibordan chetda qoldi. Va tilning inson ruhiyatiga ta’siri, milliy dunyoqarash va axloqiy qadriyatlarini tashuvchi kuchi tizimli tadqiq etilmay, fanda o‘ziga xos bo’shliq yuzaga kelgan edi.

“Tilda imkoniyat va voqelik musharakligi” g‘oyasi ushbu sohada tub birlilik yasadi. Bu konsepsiya tilga inson ma’naviyatini voqelantiruvchi jonli va dinamik borliq sifatida qarashga asos bo‘ldi. Shu asosda shakllangan lingvoma‘naviyatshunoslik yo‘nalishi til birliklarining “substansiyasi” (ya’ni ularning tub ma’naviy mohiyatini) nutqiy “pragmatika” (shaxsga va jamiyatga ko‘rsatadigan amaliy ta’siri) bilan uzviy bog‘liqlikda o‘rganishni o‘zining markaziy muammosi sifatida o‘rtaga qo‘ydi.

Bu yangi ilmiy muammoning mohiyati shundaki, endilikda tadqiqot obyekti “ma’naviyat quyoshi” bo‘lgan tilning tarbiyaviy va axloqiy quvvatidir. Substansial-pragmatik yondashuvga ko‘ra, har bir so‘z ortida millatning asriy tajribasi, dunyoni idrok etish usuli va ruhiy holati yashirin. Masalan, o‘zbek tilidagi *andisha*, *lutf*, *oriyat* kabi birliklar millat ma’naviy substansiyasining lisoniy kodlaridir. Bu kodlarning nutqda qanday voqelanishi (pragmatikasi) shaxsning ma’naviy qiyofasini belgilaydi.

Lingvoma‘naviyatshunoslik bu lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelikka aylanish qonuniyatlarini tadqiq etar ekan, tilshunoslikni “insonshunoslik” darajasiga ko‘tardi. Bu yondashuv globallashuv davrida milliy o‘zlikni saqlashning kechiktirib bo‘lmaz ijtimoiy-lingvistik zarurati sifatida namoyon bo‘ldi. Chunki ma’naviy bo’shliqni to‘ldirish, avvalo, ona tili substansiyasidagi axloqiy quvvatni nutqiy amaliyotga qaytarish orqali amalga oshadi. Shunday qilib, lingvoma‘naviyatshunoslik tilni ruh bilan, so‘zni ma’naviyat bilan bog‘lagan holda o‘zbek tilshunosligida inson omilini markazga qo‘yuvchi antropotsentrik paradigmanning eng yorqin va amaliy natijasiga aylandi. Maqsad – tilning ma’naviy substansiyasini nutqiy voqelikka aylantirish orqali komil insonni tarbiyalashdir.

LINGVOMA‘NAVIYATSHUNOSLIKNING KONSEPTUAL MODEL

Lingvoma‘naviyatshunoslik tilshunoslikning substansial-pragmatik metodologiyasiga tayanuvchi qat’iy nazariy tizimidir. Bu an’anaga ko‘ra, har qanday yangi ilmiy yo‘nalish o‘zining mustahkam terminologik bazasiga ega bo‘lishi lozim.

Lingvoma‘naviyatshunoslik o‘zbek tilshunosligiga mutlaqo yangi semantik qatlam olib kirdi va mavjud lisoniy birliklarni “ruh” va “mohiyat” (substansiya) nuqtayi nazaridan qayta ta’rifladi.

Yo‘nalishning nazariy yangiligini belgilovchi markaziy tushunchadan biri – “ma’naviy konsept”. Agar an’anaviy tilshunoslikda so‘z tushunchani ifodalasa, lingvoma‘naviyatshunoslikda u millatning asriy qadriyatlarini o‘zida jamlangan kognitiv-axloqiy tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, “andisha” so‘zi o‘zbek tili substansiyasida shunchaki “uyalish” yoki “tortinish” emas, millatning muloqot pragmatikasini boshqaruvchi, axloqiy me’yorlarni belgilovchi murakkab ma’naviy blokdir. Substansial-pragmatik yondashuv aynan mana shu ichki mohiyat (substansiya)ning nutq jarayonida qanday amal qilishi (pragmatikasi)ni tushuntiruvchi modelni taklif etadi.

Yo‘nalishning yana bir fundamental tushunchasi – “ma’naviy semantika”, so‘z va iboralarda ma’naviy ma’no, hissiy-axloqiy mazmunning shakllanish tizimini o‘rganadi. Bu yerda so‘zga yuklangan konnotatsiya(qo‘shimcha ma’no) markaziy o‘ringa chiqadi. An’anaviy yondashuvda konnotatsiya shunchaki uslubiy bo‘yoq hisoblangan bo‘lsa, lingvoma‘naviyatshunoslikda milliy e’tiqod va qadriyatlarning lisoniy in’ikosi sifatida talqin etiladi. Ilmiy iste’molga “lisoniy ma’naviyat qatlamlari”, “axloqiy konnotatorlar” kabi yangi kategoriyalar kirib keldi.

Bu konseptual model doirasida “muloqotiy taklif” va “nutqiy niyat” tushunchalari ham qayta mazmun kasb etdi. Substansial-pragmatizm tamoyiliga ko‘ra, so‘zlovchining nutqi ichki dunyosi(substansiyasi) bilan bevosita bog‘liq. Agar so‘zlovchi ma’naviy substansiyadan uzilgan bo‘lsa, nutqiy pragmatikasi kutilgan natijani bermaydi, muloqot samaradorligi yo‘qoladi. Shunday qilib, lingvoma‘naviyatshunoslikning nazariy modeli tilni ruh bilan, lisoniy tizimni milliy ma’naviyat bilan yaxlitlikda o‘rganuvchi universal tizimga aylandi. Bu tizim o‘zbek tilshunosligida inson omili va milliy ruhni ilmiy asosda tadqiq etish uchun xizmat qiladi.

SUBSTANSIAL-PRAGMATIK TAHLIL VA MA‘NAVIY DARAJALANISH

Lingvoma‘naviyatshunoslikning shakllanishi o‘zbek tilshunosligida tilni tadqiq etishning tubdan yangilangan metodologiyasini ham yuzaga keltirdi. Substansial-pragmatik tilshunoslik yondashuvning metodologik poydevori bu yo‘nalishda til birliklarini shunchaki tavsiflashdan ma’naviy-ruhiy mohiyati (substansiyasi) va nutqdagi ta’sir kuchi (pragmatikasi)ni o‘lchashga o‘tishni ta’minladi. Bu yerda asosiy o‘zgarish – lisoniy faktlarga ma’naviy qiymat o‘lchovi bilan yondashishda namoyon bo‘ladi.

Bu metodologik yangilanishning o‘zagida “lingvistik graduonimiya” (darajalanish) metodi yotadi. Lingvoma‘naviyatshunoslikda bu metod til birliklarining ma’naviy-axloqiy yukini aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Masalan, tildagi ijobiy insoniy sifatlarni ifodalovchi so‘zlar ularning ma’naviy ta’sir darajasi, axloqiy nufuzi va ruhiy quvvati bo‘yicha darajalangan tizim sifatida tahlil qilinadi. “Yaxshi”, “ezgu”, “savobli”, “muqaddas” kabi birliklar lisoniy imkoniyat darajasida bir-biridan o‘zining ma’naviy substansiyasi bilan farqlansa, nutqiy vaziyat (pragmatika)da tanlov qonuniyati asosida shaxsning ma’naviy dunyosini namoyon etadi.

Metodologik transformatsiya, shuningdek, “matnning ma’naviy-pragmatik tahlili” usulini ham shakllantirdi. Bu usul yordamida matndagi so‘zlarning o‘quvchi yoki tinglovchi ruhiyatiga ko‘rsatadigan tarbiyaviy ta’siri, milliy ruhni uyg‘otish darajasi o‘rganiladi. Tadqiqot metodlari an’anaviy qo‘lplardan chiqib, psixolingvistik tajribalar, sotsiolingvistik so‘rovnomma va statistik modellashtirish bilan boyitildi. Bu esa ilmiy tahlilning aniqligi va dalilliligi darajasini oshirib, tilshunoslikni “quruq nazariya”dan “tirik amaliyot”ga aylantirdi.

Metodologiyaning yana bir muhim jihati – lisoniy birliklarni “ochiq sistema” sifatida tadqiq etish. Lingvoma‘naviyatshunoslikda so‘z o‘zining barcha ma’naviy-tarixiy ildizlari (substansiyasi) va bugungi kundagi muloqotiy ehtiyojlari (pragmatikasi) bilan yaxlit holda o‘rganiladi. Bunday metodologik yondashuv lisoniy birliklarning nutqdagi ma’naviy faollashish jarayonini mantiqiy-izchil tushuntirish imkonini yaratadi. O‘zbek tili ma’naviyatini tadqiq etishda subyektiv mulohazalar o‘rnini qat’iy ilmiy-metodologik tahlillar egalladi. Maqsad – tilning har bir zarrasi ortida yashiringan ma’naviy quvvatni ilmiy asosda ochib berish va jamiyat taraqqiyoti uchun yo‘naltirishdir.

LINGVISTIKA, MA‘NAVIYAT VA KOGNITIV FANLAR INTEGRATSIYASI

Lingvoma‘naviyatshunoslik o‘zining substansial-pragmatik tabiati tufayli faqat tilshunoslik doirasida qolib ketmaydi. Maktabning muhim tamoyillaridan biri – tadqiqot predmetini bir necha fan kesishmasida, yaxlit holda o‘rganish. Bu yo‘nalish tilni inson ruhiyati, jamiyat axloqi va kognitiv jarayonlar bilan bog‘lovchi fanlararo ko‘prik vazifasini o‘taydi. Bunday integratsiya til birliklarining substansiyasi(ichki mohiyati)ni kengroq miqyosda tushuntirish imkonini beradi.

Lingvoma‘naviyatshunoslik psixolingvistika va kognitiv tilshunoslik bilan uzviy bog‘liq. Substansial-pragmatizm tamoyiliga ko‘ra, tildagi har bir ma’naviy konsept inson ongidagi kognitiv tuzilmalar bilan aloqador. Til birligining substansiyasi inson xotirasida qanday saqlanishi va muloqot jarayoni(pragmatika)da qanday faollashishi psixolingvistik tajribalar



orqali aniqlanadi. Masalan, “andisha” yoki “shukrona” kabi tushunchalar o‘zbek kishisining ruhiyatida qanday assotsiatsiyalarni uyg‘otishi va uning xulq-atvorini qanday boshqarishi aynan shu fanlararo tutashuvda o‘rganiladi.

Shuningdek, yo‘nalish sotsiolingvistika va lingvokulturologiya bilan ham mustahkam aloqaga ega. Tilning ma’naviy quvvati ijtimoiy muhit, turli ijtimoiy guruhlar nutqida turlicha namoyon bo‘ladi. Substansial-pragmatik tahlil jamiyatdagi ma’naviy o‘zgarishlarning tilga qanday ta’sir ko‘rsatishini va, aksincha, tilning ijtimoiy ma’naviyatni qanday shakllantirishini tadqiq etadi. Bu jarayonda til millat madaniyati va qadriyatlarini saqlovchi va uzatuvchi asosiy substansiya sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda lingvoma‘naviyatshunoslik hatto informatika va sun’iy intellekt sohalari bilan ham integratsiyalashmoqda. Raqamli olamda o‘zbek tilining ma’naviy-axloqiy filtrlarini yaratish, matnlarning ma’naviy ta’sirini tahlil qiluvchi algoritmlarni ishlab chiqish kabi vazifalar kun tartibiga chiqmoqda. Fanlararo bunday keng qamrovli aloqa tadqiqot predmetini murakkab kognitiv-ijtimoiy borliq sifatida tushuntirish imkonini beradi. Bu o‘zbek tilshunosligida inson omilini markazga qo‘yuvchi antropotsentrik paradigmanning amaliy yutug‘idir. Maqsad – turli fanlar imkoniyatlarini birlashtirib, tilning ma’naviy qudratini millat kamoloti uchun xizmat qildirishdir.

MA‘NAVIY TIKLANISH VA RAQAMLI KELAJAK STRATEGIYASI

Lingvoma‘naviyatshunoslik yo‘nalishi – jamiyatning ma’naviy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan ulkan amaliy ahamiyatga ega loyiha. Substansial-pragmatik yondashuv til birliklarining ma’naviy quvvatini amaliyotga, xususan, ta’lim va tarbiya jarayoniga tatbiq etishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqdi. Bu sohaning amaliy istiqbolli, eng avvalo, “ma’naviyat quyoshi” bo‘lgan ona tili-

mizni yosh avlod ongiga milliy qadriyatlar tizimi sifatida singdirishda namoyon bo‘ladi.

Sohaning amaliy ahamiyati uzluksiz ta’lim tizimi uchun yaratilayotgan yangi avlod darsliklari va o‘quv lug‘atlarida o‘z aksini topmoqda. Lingvoma‘naviyatshunoslik tamoyillari asosida tayyorlangan o‘quv materiallari o‘quvchining milliy g‘ururi va axloqiy qiyofasini ham shakllantiradi. Masalan, til birliklarining “ma’naviy semantikasi” tahlil qilenganda o‘quvchi so‘z ortidagi milliy e’tiqod va tarixiy tajribani his qiladi. Bu til o‘qitishni shunchaki lisoniy mashqdan ma’naviy tarbiya darsiga aylantiradi. Kelajakda ushbu yo‘nalish doirasida o‘zbek tilining ma’naviy konseptlarini o‘z ichiga olgan ixtisoslashgan lug‘atlarining yaratilishi tilshunoslikning ijtimoiy nufuzini yanada oshiradi.

Ilmiy istiqbol nuqtayi nazaridan, lingvoma‘naviyatshunoslik raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt bilan integratsiyalashuv bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Kelajakdagi tadqiqotlar o‘zbek tilining ma’naviy-axloqiy qatlamini raqamli korpuslarda aks ettirish, matnlarning ma’naviy ta’sir kuchini avtomatik baholash tizimlarini yaratishga qaratiladi. Bu jarayonda “tilda imkoniyat va voqelik musharakligi” g‘oyasi raqamli dunyoda milliy ruhni saqlab qolishning metodologik tayanchi bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli makonda ma’naviy filtrlar yaratish va o‘zbek tilining pragmatik imkoniyatlarini SI tizimlariga o‘rgatish ushbu sohaning ertangi kuni hisoblanadi.

Lingvoma‘naviyatshunoslik – o‘zbek tilshunosligining milliy mohiyatini ochib beruvchi eng istiqbolli yo‘nalish. Kelajakda millat tafakkuri va ruhiyatini tadqiq etuvchi fundamental ilmiy baza vazifasini o‘taydi. Yo‘nalishning rivoji yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitish, ona tilimizni asrab-avaylash va raqamli asrda milliy qadriyatlarimizning asosiy hi-moyachisiga aylantirish imkonini beradi.

Farrux YO‘LDOSHEV,
filologiya fanlari doktori,
professor

TIL VA HUQUQ CHORRAHASIDAGI HAQIQAT

ZAMONAVIY EHTIYOJ VA SOHANING TUG‘ILISHI

Subpragmalingvistik yondashuv tildagi ko‘zga tashlanmaydigan, nutq qatlamlarining eng chuqur qismida yashiringan ma’no jilolari va so‘zlovchining angalmagan niyatlarini tadqiq etuvchi soha sifatida amaliy tilshunoslikning poydevoriga aylanmoqda. Zero, har bir aytilgan so‘z yoki bitilgan satr ortida subyektning ruhiy holati, ijtimoiy kelib chiqishi va yashirin maqsadlari mujassam. Aynan mana shu nozik nuqtalarni ilmiy asosda baholash ehtiyoji bugungi globallashuv sharoitida jamiyatning turli jabhasida paydo bo‘layotgan ziddiyatli matnlarni izohlash, huquqiy masalalarni adolatli hal etish hamda matn muallifini aniqlash kabi murakkab jarayonlarda lingvistik bilimlarga bo‘lgan talabni tobora oshirmoqda. Bugungi kun tilshunos nutqning pragmatik va subpragmatik qirralarini ochib beruvchi, jamiyat adolati uchun xizmat qiluvchi mutaxassisdur. Ayniqsa, sud-ekspertiza faoliyatida turli nutqiy dalilni to‘g‘ri talqin qilishda lingvistik ekspertologiyaning ahamiyati beqiyos, u subpragmalingvistik metodlar orqali matndagi ochiq aytilmagan, ammo ma’no zamirida mavjud bo‘lgan haqiqatlarni yuzaga chiqaradi.

Lingvistik ekspertologiya tilshunoslik, huquqshunoslik, psixologiya va kriminalistika kabi fanlar chorrahasida shakllangan, ziddiyatli matn tahlilini chuqur ilmiy asoslarga tayangan holda amalga oshiruvchi multiditsiplinar sohadir. Inson nutqi bugungi kunda huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi va sud jarayonlarida isbotlovchi qudratli dalilga aylandi. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon

miqyosida inson nutqidani dalil sifatida foydalanish zarurati tug‘ilishi bilan bu yo‘nalish jadal rivoj topa boshladi. Ayniqsa, anonim matnlar yoki ziddiyatli mualliflik munozaralarini aniqlashda metodik yondashuvlar zarurligi bu fanning mustaqil soha sifatida ajralib chiqishiga turtki bo‘ldi. Lingvistik ekspertologiyani ba’zan “til va huquq chorrahasidagi fan” deb ham atashlari bejiz emas, chunki u forensik lingvistika yoki lingvokriminalistika kabi atamalar bilan ham tavsiflanib, bevosita insonlarning taqdiri, aybsiz yoki aybdor ekanligini aniqlashda sudga ilmiy asoslangan dalillarni taqdim etadi.

O‘zbekiston sharoitida soha XXI asr boshida bosqichma-bosqich shakllanib, ayni paytda yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ydi. Har bir nutq akti ortida muayyan ijtimoiy maqsad, psixologik kontekst va uslubiy omillar mavjudligi sababli ekspertiza jarayoni mayda “parchalangan” ma’nolarni yaxlit, obyektiv ko‘rinishda tahlil qilishni taqozo etadi. Bu jarayonda nutq aktining an’anaviy uch komponenti – lokutsiya (mazmun), illokutsiya (niyat) va perlokutsiya (ta’sir) – lingvistik ekspertiza tahlilining diqqat markazida turadi. Shunday qilib, zamonaviy o‘zbek tilshunosligi

dagi har bir leksik birlik, grammatik qurilish va hatto uslubiy bo‘yoqlar muayyan huquqiy oqibatni keltirib chiqarishi mumkin.

Yana bir o‘ta muhim nazariy kategoriya – “mualliflik uslubi”. Har bir shaxsga xos bo‘lgan fonetik, leksik, grammatik va stilistik belgilar majmuyi ekspertiza uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Xuddi bar-moq izlari kabi insonning nutqiy faoliyati ham takrorlanmas individual xususiyatlarga ega. Anonim tahdid xatlari, tuhmat mazmunli postlar yoki shubhali hujjatlarini tahlil qilishda aynan shu mualliflik uslubi orqali matn ortida turgan shaxsning lisoniy portretini chizish mumkin. Bu jarayonda “lug‘aviy-semantik tahlil” usuli qo‘llanib, matndagi asosiy va qo‘shimcha ma’nolar, konnotatsiya hamda uslubiy bo‘yoqlar izchil o‘rganiladi.

O‘zbekistonda lingvistik ekspertologiya XXI asr boshida bosqichma-bosqich shakllanib, ayni paytda davlat organlari bilan hamkorlikda yangi taraqqiyot bosqichiga ko‘tarildi. Soha sotsiolingvistik, psixolingvistika va korpus lingvistikasi kabi fanlarning metodologik yutuqlaridan keng foydalanmoqda. Professor B.Mengliyev rahbarligidagi tadqiqotlar natijasida

jamiyatning huquqiy ehtiyojlarini qondirish, axborot xavfsizligini ta’minlash va muloqot madaniyatini asrashda bevosita ishtirok etmoqda. Bu milliy tilshunosligimizning jahon andozalari darajasi, amaliy va raqamli yo‘nalishlarda jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi.

NAZARIY POYDEVORI VA ASOSIY TUSHUNCHALARI

Lingvistik ekspertologiya – tilning murakkab lisoniy tabiatini huquqiy mezonlar bilan uyg‘unlashtiruvchi yuqori texnologik va multiditsiplinar soha. O‘zbekistonda uning mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanishi, nazariy metodologiyasi ishlab chiqilishi va tizimli ravishda tadqiq etilishi substansial-pragmatik tilshunoslikning yutuqlaridan. Olimning sa’y-harakatlari natijasida o‘zbek tilshunosligida til birliklariga ijtimoiy buyurtma va huquqiy ehtiyoj nuqtayi nazaridan yondashish an’anasi boshlab berildi. Bu yo‘nalish tilshunoslikning nazariy yutuqlarini sud-ekspertiza amaliyotiga tatbiq etib, “til va huquq chorrahasidagi fan”ning milliy poydevorini yaratdi.

Sohaning nazariy poydevori inson nutqidani dalil sifatida foydalanish zarurati tug‘ilgan paytdan boshlab rivojlana boshladi. Bugun bu fanning markazida “ziddiyatli matn” tushunchasi turadi. Ziddiyatli matn – huquqiy masalalarni keltirib chiqarayotgan yoki muhokamaga sabab bo‘layotgan har qanday nutqiy shakl(audio, video, yozma matn), ekspertiza obyektining boshlang‘ich nuqtasi. Ekspertning asosiy vazifasi ana shu ziddiyatli muhitdan “nutqiy dalil”ni ajratib olish va unga ilmiy baho berishdan iborat. Bunda matn-

o‘zbek tili materiallari asosida yaratilgan ilmiy ishlarni huquqiy jarayonlarda milliy xususiyatlarimizni, lahja va shevalardagi farqlarni ham inobatga olish imkonini bermoqda. Bu tilning ijtimoiy fenomen sifatidagi rolini oshirib, jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

AMALIY TAHLIL BOSQICHLARI

Lingvistik ekspertiza jarayoni til birliklarining zohiriy va botinij qatlamlarini huquqiy mezonlar asosida tadqiq etuvchi murakkab intellektual jarayondir. Jarayonning muvaffaqiyati uning metodologik jihatdan nechoqlik aniq tuzilganiga bog‘liq, u uchta asosiy bosqichni qamrab oladi.

Birinchi bosqich matnning umumiy lisoniy manzarasini belgilash va dastlabki tanishuvdir. Bu bosqichda ekspert tadqiqot obyektining janri, uslubi va kommunikativ maqsadini aniqlaydi. Matn qayerda, qachon va qanday sharoitda paydo bo‘lgani kabi tashqi omillar o‘rganiladi. Ikkinchi va eng mas’uliyatli bosqich – chuqur lingvistik tahlil jarayoni. Bunda matnning leksik-semantik, grammatik va sintaktik qurilishi zarrabin ostiga olinadi. Har bir so‘zning lug‘aviy ma’nosi, kontekstdagi jilolari, gaplarning qurilish tizimi va mantiqiy bog‘lanishi sinchiklab tekshiriladi. Uchinchi bosqich barcha olingan natijalarni umumlashtirish va yakuniy xulosani shakllantirishdan iborat, sud yoki tergov organlari uchun huquqiy hujjat qiymatiga ega bo‘ladi.

(Davomi 16-betda.)



Raqamli inqilob va tilning yashovchanligi

Bugungi kunda “raqamlashmagan til – o‘lik til” degan ibora tilshunoslikning eng dolzarb lisoniy haqiqatiga aylandi. XXI asrda har qanday tilning yashovchanligi raqamli maydonda mavjudligi, ya’ni kompyuter xotirasi va sun’iy intellekt tizimlariga qanchalik moslashganligi bilan belgilanmoqda. Raqamli tilshunoslik an’anaviy lisoniy birliklarni murakkab dasturiy algoritmlar yordamida qayta ishlash, matnlarning ulkan elektron baza(korpus)larini yaratish va inson nutqini mashina tushunadigan mantiqiy tilga o‘girish bilan shug‘ullanuvchi zamonaviy amaliy sohadir. Bu jarayonda til ijtimoiy muloqot vositasi bo‘lishdan aniq matematik model va algoritmlar asosida ishlovchi raqamli kodga aylanadi.

Raqamli transformatsiya jarayonida subpragmalingvistik tahlilning o‘rni beqiyos. Gap shundaki, tilni raqamlashtirish nutqning satr osti ma’nolari, so‘zlov-

“jonli xotirasi”ni raqamli man-gulikka muhrlashdir. Avtomatik tarjima tizimlarida o‘zbek tilining agglyutinatib tabiati va so‘z shakllarining pragmatik yuklamalarini to‘g‘ri aks ettirish – mashina tilini inson tiliga maksimal darajada yaqinlashtirish imkonini beradi. Shunday qilib, o‘zbek tili virtual olamda o‘zining barcha lisoniy boyligi va pragmatik jilolari bilan raqobatbardosh, o‘zgaruvchan va mangu yashovchan til sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu – raqamli dunyoda milliy o‘zligimizni asrab qolish va taraqqiy ettirishning eng samarali yo‘lidir.



TILNING VIRTUAL MAKONDAGI HAYOTI

chining yashirin niyatlari va matndagi nozik pragmatik jilolarni ham kompyuter algoritmlariga “tushuntirish” demakdir. Raqamli tilshunoslik subpragmatik qatlamdagi anglanmagan lisoniy tanlovlarni matematik tahlil qilish orqali sun’iy intellektning inson nutqini yanada tabiiy anglashiga xizmat qiladi. Professor Baxtiyor Mengliyev ta’kidlaganidek, til birliklarining raqamli bazasini yaratishda ular lisoniy imkoniyatlarining butun ko‘lami, jumladan, pragmatik va subpragmatik xususiyatlarini ham tizimga kiritish o‘zbek tilining virtual dunyodagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Raqamli dunyoda tilning mavjudligi “big data” – ulkan ma’lumotlar massividagi ulushiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Agar til raqamli formatda yetarli ma’lumot bazasiga ega bo‘lmasa, global axborot almashinuvi va zamonaviy texnologiya(masalan, mashina tarjimasi, ovoqli yordamchi)lar qobig‘idan tashqarida qolib ketadi. Shuning uchun raqamli tilshunoslik doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar tilimizning mangu hayotiy- ligini ta’minlashdagi eng muhim lisoniy harakatdir. Tilning raqamli kodi – genetik xotirasini kelajak avlodlarga beg‘ubor yetkazishning eng zamonaviy va ishonchli usuli.

O‘zbek tilining virtual makondagi zafarlari

O‘zbek tili so‘nggi yillarda raqamli taraqqiyot sari dadil qadam qo‘yib, virtual makonning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Amaliy tilshunoslik sohasidagi izchil tadqiqotlar natijasida milliy korpus, onlayn lug‘at va avtomatik tarjima tizimlarining yaratilayotgani ona tilimizning global axborot maydonidagi nufuzini tubdan oshirmoqda. Bu jarayonda, ayniqsa, nutqni matnga aylantirish(“speech-to-text”) va yozma matnni ovoqli shaklga o‘tkazish(“text-to-speech”) texnologiyalarining muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgani katta ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar jamiyatning barcha qatlami, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ham raqamli dunyodan foydalanishda teng imkoniyat eshigini ochadi. Lekin raqamli makondagi bu muvaffaqiyatlar – tilning subpragmalingvistik tabiati bilan bog‘liq murakkab jarayon. Inson nutqini raqamli formatga o‘tkazishda so‘zlovchining lisoniy tanlovi ortida turgan “subpragmatik impuls”larni hisobga olish texnologiya sifatini belgilaydi. Masalan, ovoqli yordamchilar o‘zbek nutqiga xos intonatsiya, urg‘u va kontekstual urg‘u orqali ifodalanadigan yashirin niyatlarni ham ang-lay olishi lozim. Virtual makondagi zafarlarimizning mohiyati shundaki, tilimizni sun’iy intellekt model-lariga o‘zbek xalqining fikrlash tarzi va lisoniy etikasiga xos nozik pragmatik qirralarni ham singdirmoqdamiz.

Subpragmalingvistika nuqtayi nazaridan onlayn lug‘at va milliy korpuslarning shakllanishi tilning

Agglyutinatib tillar va algoritmlar murakkabligi

Professor Baxtiyor Mengliyev rahbarligida raqamli tilshunoslik asoslari bo‘yicha ilk monografiya va qo‘llanma tayyorlandi. Raqamli tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlarga qaramay, o‘zbek tili kabi agglyutinatib(qo‘shimcha qo‘shiluvchi) tillar uchun mukammal avtomatik tahlil modellarini yaratish hamon dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda. Jarayon tilning ichki matematik va lisoniy qonuniyatlarini raqamli formatga o‘girishni talab etuvchi o‘ta murakkab amaliyot. O‘zbek tili tabiatiga ko‘ra, birgina o‘zakka o‘nlab morfologik va semantik qo‘shimchani zanjirimon qo‘shilishi natijasida minglab so‘z shakli hosil bo‘ladi. Bu holat kompyuter algoritmlari uchun o‘ta murakkab variantivlikni keltirib chiqaradi va sun’iy intellekt tizimlaridan aniq morfologik analizatorlarni talab qiladi.

Subpragmalingvistik nuqtayi nazardan qaraganda bu murakkablik yanada chuqurlashadi. Zero, agglyutinativ qo‘shimchalar ko‘pincha nutqning subpragmatik qatlami – so‘zlovchining subyektiv munosabati, hurmat yoki kinoya, niyatning darajasini ham ifodalaydi. Masalan, bir qo‘shimchani o‘zgarishi butun bir gapning pragmatik yukini butkul o‘zgartirib yuborishi mumkin. Raqamli modellarni yaratishda bu “nozik ma’no jilolari”ni matematik algoritmlarga joylash – bugungi kun tilshunosligi oldidagi eng katta chaqiriq. Sun’iy intellekt matnni tahlil qilayotganda qo‘shimchalar zamiridagi yashirin lisoniy maqsadni ham “his qilishi” lozim.

Hozirda o‘zbek tilining dialektal ma’lumotlar bazasi to‘liq shakllanmaganligi va fonetik-morfologik modellarimizning raqamli formatga mukammal o‘tkazilmaganligi sababli sun’iy intellekt tizimlari uchun ma’lumotlar hajmi(data) yetarli emasdek ko‘rinadi. Ayniqsa, sheva xususiyatlari va og‘zaki nutqning subpragmatik o‘ziga xosliklarini raqamlashtirishda ma’lumotlar taqchilligi sezilmoqda. Shu sababli agglyutinativ tillar uchun avtomatik tahlil modellarini yaratish tilshunoslarning lisoniy birliklar tagqatlamini chuqur ilmiy hisob-kitob qilishlarini taqozo etadi. Bu yo‘nalishdagi muvaffaqiyatlar tilimizning raqamli intellektini inson tafakkuri darajasiga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Sun’iy intellekt va “big data” istiqbollari

Raqamli tilshunoslikning istiqbollari bevosita sun’iy intellekt va neyron tarmoqlarining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq. Kelajakda o‘zbek tilidagi barcha yozma meros, arxiv hujjatlari va jonli nutq namunalari-ni o‘z ichiga olgan ulkan “big data” bazalari yaratilishi kutilmoqda. Bunday ulkan lisoniy massiv mashina tar-jimasining sifatini inson tarjimasi darajasiga ko‘tarish, o‘zbek tilida erkin va mantiqiy muloqot qila oladigan

“aqlli” virtual yordamchilarni takomillashtirish imkonini beradi. Bu jarayonda tilshunoslik sun’iy ongni oziqlantiruvchi asosiy intellektual manbaga aylanadi.

Subpragmalingvistik nuqtayi nazardan “big data” bazalarining ahamiyati shundaki, ular tilning eng kichik va sezilmas ma’no qatlamlarini ham statistik tahlil qilish imkonini beradi. Mashina tili inson nutqidagi yashirin niyat(illokutsiya)ni ang-lay olishi uchun tizimga millionlab pragmatik vaziyat yuklanishi lozim. Kelajakdagi “aqlli” tizimlar so‘zlovchining emotsional holati, ijtimoiy konteksti va nutq zamiridagi subpragmatik impuls-larni ham tahlil qila oladi. Bu raqamli dunyoda inson va kompyuter o‘rtasidagi muloqotni maksimal darajada tabiiylashtiradi.

Shuningdek, til siyosati doirasida ona tilimizning raqamli xavfsizligini ta’minlash – global tarmoqda o‘zbek tili qoidalari va uslubiy me’yorlari buzilishi-ni oldini oluvchi avtomatik tahrir tizimlarini joriy etish dolzarb vazifa. Neyron tarmoqlar asosidagi tahrir dasturlari matnning pragmatik muvofiqligini ham tekshira oladigan darajaga yetishi lozim. Pirovardida, raqamli tilshunoslik yutuqlari o‘zbek tilini global sun’iy intellekt tizimlarining to‘laqonli a’zosiga aylantirib, zamonaviy texnologiyalar tiliga aylanishini kafo-latlaydi.

Milliy o‘zlikning “raqamli qalqon”i

Xulosa qilib aytganda, raqamli inqilob davrida tilshunoslik fani an’anaviy nazariy qobig‘idan chiqib, yuqori texnologiya olamiga to‘liq integratsiyalashdi. O‘zbek tilining raqamli imkoniyatlarini kengaytirish – butun jamiyatning milliy vazifasi. Zero, raqamli formatda boyitilgan, sun’iy intellekt tizimlariga mukammal moslashgan til kelajak avlodlar uchun milliy o‘zlik va madaniy merosni saqlab qoluvchi eng mustahkam “raqamli qalqon” bo‘lib xizmat qiladi. Raqamli dunyoda munosib o‘rin egallash – tilning mangu hayotiy- ligi va jahonning rivojlangan tillari bilan tengligini ta’minlash demakdir.

Subpragmalingvistik tahlillar ko‘rsatadiki, tilning raqamli nusxasi yaratilayotganda uning ruhi, ya’ni xalqimizga xos muloqot etikasi, nozik kinoya va hurmat kabi pragmatik qatlamlarini saqlab qolish o‘ta muhim. Agar raqamli maydonda faqat quruq grammatik qolip-lar bilan cheklansak, tilning jonli va ta’sirchan tabiatini yo‘qotib qo‘yishimiz mumkin. Shuning uchun milliy o‘zlikni raqamlashtirish jarayonida har bir lisoniy bir-likning subpragmatik yukini algoritmlarga singdirish – o‘zbek tilining o‘ziga xosligini global virtual muhitda himoya qilishning yagona yo‘li sanaladi.

Kelajakda o‘zbek tili inson tafakkurining barcha nozik qirralarini raqamli olamda aks ettira oladigan mukammal tizimga aylanishi shart. Bu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarimiz pirovardida milliy tilshunos-ligimizning jahon andozalari darajasida taraqqiy etishi va ona tilimizning kelajak texnologiyalari markazidan mustahkam joy olishiga xizmat qiladi. Raqamli dunyo-da yashash o‘zligimizni asragan holda taraqqiyot bilan hamnafas bo‘lishdir.

Bobur MAHAMMADOV,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori, dotsent



SUN'IY INTELLEKT BILAN MULOQOT SAN'ATI

Raqamli asrning yangi muloqot madaniyati

Raqamli inqilob davrida tilshunoslik an'anaviy qobig'idan chiqib, yuqori texnologiyalar bilan shu qadar uyg'unlashib ketdiki, natijada mutlaqo yangi va istiqbolli sohalar yuzaga kela boshladi. Ana shunday yo'nalishlardan biri – lingvopromptologiya (yoki promptinjiniring), u inson va sun'iy intellekt o'rtasidagi muloqotni samarali tashkil etish, mashinaga tushunarli va aniq buyruqlar berish metodikasini o'rganadi. Agar raqamli tilshunoslik tilni kompyuter tushunadigan formatga o'tkazish bilan shug'ullansa, lingvopromptologiya insonning lisoniy imkoniyatlarini mashina "tafakkuri"ga moslashtirish va murakkab algoritmlar bilan professional darajada tillashish vazifasini bajaradi.

O'zbek tilshunosligida bu zamonaviy yo'nalishning nazariy-metodik asoslarini anglash va milliy til tabiatiga moslashtirishda substansial-pragmatik metodologiyaning o'rni katta. Ustoz rahbarligida "Lingvopromptologiya" o'quv qo'llanmasi va promptologiya muammolariga doir jamoaviy monografiyada ilgari surilgan amaliy tilshunoslik tamoyillari bugun insonning sun'iy intellekt bilan muloqot qilish madaniyatini shakllantirishda ham asos bo'lib xizmat qilmoqda. Lisoniy birliklarga substansial-pragmatik yondashuv lingvopromptologiyaning tub mohiyatini tashkil etadi: ya'ni so'zlovchi (prompt muallifi) o'z niyatini mashinaga shunday yetkazishi kerakki, natijada hosil bo'lgan nutqiy voqelik kutilgan maqsadga to'liq mos kelishi lozim.

Lingvopromptologiya – raqamli davrning o'ziga xos "lisoniy odobi". Sun'iy intellekt bilan muloqotda so'zlarning semantik aniqligi, kontekstning to'g'ri belgilanishi va uslubiy muvofiqlik birinchi o'ringa chiqadi. Bu jarayonda tilshunoslik fani matematik aniqlik va badiiy mahorat tutashgan nuqtaga aylanadi. Zamonaviy tilshunoslikning vazifasi tilimizning boy imkoniyatlarini raqamli kodlarga to'g'ri ko'chirish va insoniyatga texnologiyalardan maksimal darajada foydalanish uchun lisoniy kalitlarni taqdim etishdir.

Bugungi kunda lingvopromptologiyani o'zlashtirish kelajak tilida gapirishni o'rganish bilan barobar. Bu yo'nalish ona tilimizning raqamli dunyoda texnologik taraqqiyotning drayveriga aylanishini ta'minlaydi. Zero, raqamli asrda so'zning qadri mashina xotirasida qanchalik aniq aks etishi va foydali natija berishi bilan o'lchanmoqda. O'zbek tilshunosligining bu yangi ufqlari bizni "aqlli" jamiyat qurish va milliy o'zligimizni yuqori texnologiyalar darajasida himoya qilish sari yetaklaydi.

Substansial-pragmatik asos va niyat ifodasi

Lingvopromptologiyaning tub mohiyati tilning substansial-pragmatik tabiatida yaqqol namoyon bo'ladi. Zamonaviy tilshunoslik tushunchalari bilan aytgan-



da, bu yerda inson tomonidan yozilgan "prompt" (buyruq) – lisoniy imkoniyat bo'lsa, sun'iy intellekt tomonidan shakllantirilgan javob – nutqiy voqelik. Inson va mashina o'rtasidagi muloqotning samaradorligi birinchi navbatda so'zlovchining o'z niyatini(intensiyasini) nechoqlik aniq, mantiqiy va tizimli so'zlar bilan ifodalashiga bog'liq. Bu jarayonda til sun'iy ongni harakatga keltiruvchi substansial quvvat vazifasini o'taydi.

Yaxshi tuzilgan prompt shunchaki kalit so'zlar yig'indisi emas. U – aniq lisoniy kontekst, tanlangan uslub, muayyan cheklov va kutilayotgan natija formatidan iborat bo'lgan murakkab lisoniy konstruksiya. Lingvopromptologiya doirasida inson o'z niyati(illokutsiya) ni mashina tushunadigan aniq ko'rsatmalarga aylantirishi lozim. Agar buyruq loyqa yoki noaniq bo'lsa, sun'iy intellekt taqdim etgan nutqiy voqelik(perlokutsiya) kutilgan natijadan uzoqlashadi. Shu ma'noda, lingvopromptologiya zamonaviy muloqot madaniyatining yangi, raqamli shakli, an'anaviy tilshunoslikni subpragmatik qatlamlar, ya'ni so'z ortidagi anglanilmagan niyatlarni anglash va boshqarish san'ati bilan boyitadi.

Substansial-pragmatik yondashuv tilshunosga matnni ichki imkoniyatlari nuqtayi nazaridan baholash imkonini beradi. Lingvopromptologiyada so'zning "substansiyasi" semantik quvvatida, "pragmatikasi" esa aniq natijaga yo'naltirilganligida ko'rinadi. Sun'iy intellektga murojaat qilar ekanmiz, tilning eng nozik qatlamlaridan foydalanamiz: piching, kinoya, rasmiylik yoki ommaboplik kabi uslubiy jilolarni buyruq zahiriga singdiramiz. Bu raqamli dunyoda "so'zning o'z o'rnida qo'llanishi" tamoyili naqadar hayotiy ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Lingvopromptologiya – inson tafakkurining lisoniy in'ikosi va mashina algoritmlari o'rtasidagi ko'priq. Bu yo'nalishni egallash niyatini dunyoga eng samarali yo'l bilan yetkazish qobiliyatini rivojlantirish demakdir.

O'zbek tili va semantik modellash

Bugun lingvopromptologiya – o'zbek tili uchun ham o'ta dolzarb va strategik

ahamiyatga ega soha. Sun'iy intellekt tizimlari (masalan, ChatGPT, Gemini, Claude) o'zbek tilining murakkab grammatik qurilishi va o'ziga xos semantik nozikliklarini to'liq o'zlashtirishi, eng muhimi, tilimizning ruhini his qilishi uchun inson tomonidan beriladigan ko'rsatmalar professional darajada bo'lishi shart. Bu jarayonda semantik model-lashtirish metodlaridan foydalanish birinchi darajali masaladir. So'zlarning ma'no qatlamlari, kontekstual bog'liqliklarini aniq ko'rsatish orqali mashinadan mantiqiy, uslubiy va mazmunijihatdan mukammal javob olish imkoniyati kengayadi.

Semantik modellashning lingvopromptologiyadagi o'rni shundaki, "oddiy buyruq"ni "aqlli ko'rsatma"ga aylantiradi. Masalan, sun'iy intellektga shunchaki "maqola yoz" deb murojaat qilish – noaniq lisoniy imkoniyat. Bunday holatda mashina umumiy va yuzaki matn taqdim etadi. Haqiqiy promptologik mahorat maqolaning maqsadli auditoriyasini (olimlar, talabalar yoki keng jamoatchilik), nutq ohangini (rasmiy, ilmiy yoki ommabop), tayanch tushuncha va matnning mantiqiy iyerarxiyasini semantik jihatdan belgilab berishda namoyon bo'ladi. Bunda tilshunos so'zlarning ma'no maydonlarini modellashirib, mashinaga qaysi tushunchaga urg'u berish kerakligini "ko'rsatib" beradi.

O'zbek tili agglyutinatativ til bo'lgani sababli, semantik modellashirishda so'z o'zaklariga qo'shiladigan qo'shimchalarning pragmatik yukini ham hisobga olish lozim. Masalan, birgina "keldi" so'zi bilan "kelib qoldi" yoki "tashrif buyurdi" variantlari orasidagi uslubiy farqni mashinaga tushuntirish uchun prompt tarkibida semantik filtrlar o'rnatiladi. Bu sun'iy intellekt tomonidan yaratilayotgan matnlarning sun'iyligini kamaytirib, ularni jonli o'zbek nutqiga maksimal darajada yaqinlashtiradi. Shunday qilib, semantik modellashirish lingvopromptologiyaning "miyasi"ni tashkil etadi va ona tilimizning raqamli dunyodagi sifat ko'rsatkichini belgilaydi.

Kelajak kompetensiyasi va "aqlli" jamiyat

Lingvopromptologiya sohasining istiqbollari bevosita "aqlli" jamiyat qurish

strategiyasi bilan chambarchas bog'liq. Yaqin kelajakda lingvopromptologiya nafaqat tilshunoslar yoki AT mutaxassislari, har bir soha vakili uchun zaruriy kompetensiyaga aylanadi. Inson va texnologiya hamkorligi yangi bosqichga ko'tarilayotgan bir paytda, sun'iy intellekt bilan muloqot qila olish mahorati xuddi o'qish va yozish kabi fundamental ko'nikmalar qatoridan joy oladi. Bu jarayonning negizida esa til turadi, zero mashinani boshqarish so'zni boshqarish demakdir.

Raqamli tilshunoslik bazasida o'zbek tili uchun mukammal prompt-shablonlar kutubxonasini yaratish – kechiktirib bo'lmas vazifa. Bunday kutubxonalar turli soha mutaxassislariga sun'iy intellektidan maksimal samaradorlik bilan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, ta'lim tizimining barcha bo'g'inida o'quvchi va talabalarga sun'iy intellekt bilan muloqot qilishning lingvistik odobi, mantiqiy ko'rsatmalar berish metodikasini o'rgatish ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Bu tilning imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiluvchi yangi tipdagi lisoniy ta'limdir.

Bu kabi sa'y-harakat ona tilimizning raqamli dunyoda texnologik taraqqiyotning asosiy drayveriga aylanishini ta'minlaydi. O'zbek tilidagi mukammal va mantiqiy promptlar asosida ishlovchi texnologiyalar milliy iqtisodiyot va ilmfan rivojiga xizmat qiladi. Raqamli asrda til o'zining substansial quvvatini namoyon etib, jamiyatni intellektuallashtirish va boshqarishning eng samarali vositasi bo'lib qolaveradi.

Algoritmlar dunyosidagi so'z qadri

Demak, lingvopromptologiya – tilshunoslikning matematik aniqlik va badiiy mahorat tutashgan eng yuksak nuqtasi. U inson tilining cheksiz va serjilo imkoniyatlarini sovuq algoritmlar dunyosiga olib kiradi va "jonlantiradi". Raqamli asrda so'zning qadri endi mashina xotirasida qanchalik aniq aks etishi, mantiqiy kodga aylanishi va foydali amaliy natija berishi bilan o'lchanmoqda. Binobarin, lingvopromptologiyani o'zlashtirish kelajak tilida gapirishni va fikrlashni o'rganish demakdir.

Bu yo'nalish o'zbek tilini oddiy muloqot vositasi darajasidan eng murakkab texnologik jarayonlarni boshqaruvchi intellektual qudrat darajasiga ko'taradi. So'z – algoritmlarni harakatga keltiruvchi "yoqilg'i"ga aylanar ekan, tilshunoslikning roli jamiyat hayotida tubdan o'zgaradi. Tilshunos raqamli reallikni shakllantiruvchi "lisoniy muhandis" (prompt-engineer) sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda tilning substansial-pragmatik quvvati mashina "ongini" inson manfaatlariga xizmat qildirishga yo'naltiriladi.

Xullas, lingvopromptologiya ona tilimizning kelajak kafolatidir. O'zbek tilida qanchalik mukammal, mantiqiy va aniq promptlar yarata olsak, sun'iy intellekt olamida tilimizning nufuzi shunchalik baland bo'ladi. Raqamli dunyoda yashash va g'olib bo'lish uchun tilimizning barcha imkoniyatlarini texnologiya tiliga muhrlashimiz lozim. Zero, so'zni boshqargan odam kelajakni boshqaradi.

Kamola SAIDOVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti

SUBSTANSIAL-PRAGMATIK ASOSLAR VA TIL MENEJMENTI STRATEGIYALARI

O'zbek lingvopolitologiyasida substansial-pragmatik yondashuv

O'zbekiston mustaqillik yillarida til siyosati va til qurilishi masalalarida ulkan yo'lni bosib o'tdi. Biroq XXI asrning globallashuv sharoiti tilni ulkan siyosiy va ijtimoiy resurs – **lingvopolitologik obyekt** sifatida tadqiq qilishni taqozo etayotir. Bu borada o'zbek tilshunosligida yangi davrni boshlab bergan yo'nalish, shubhasiz, **substansial-pragmatika** hisoblanadi. Bu yo'nalishda ilgari surilgan g'oyalar til menejmenti va lingvopolitologiyaning poydevorini tashkil etadi.

“Substansial-pragmatik tilshunoslik” tushunchasi tilning ichki mohiyati (substansiyasi) va uning jamiyatdagi faoliyati (pragmatikasi) o'rtasidagi uzviylikni tadqiq etadi. Lingvopolitologik nuqtayi nazardan bu yondashuv tilni milliy manfaatlar va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik vosita sifatida ko'radi. Tilning **“imkoniyat” (substansiya)** darajasi **“voqelik” (pragmatika)** darajasiga aylanishi uchun davlat va jamiyat tomonidan ongli ravishda boshqarilishi lozim. Bu maktab vakillari tilni boshqarishda an'anaviy “tavsiya berish” usulidan voz kechib, tilni ijtimoiy mahsulot sifatida “tizimli tashkil etish” metodikasini ilgari surmoqdalar.

Yondashuv markazida tilni siyosiy barqarorlik omili sifatida ko'rish yotadi. Lingvopolitologik tadqiqotlar mamlakatdagi lisoniy vaziyatni, tillarning ijtimoiy-lisoniy holati va ularning tarqalish hududlarini xolis baholash imkonini beradi. Yo'nalishining asosiy doktrinasi shundan iboratki, davlat tili qonunlarda belgilangan maqomgina emas, real ijtimoiy hayotda to'laqonli ishlaydigan mexanizm bo'lishi kerak. Buning uchun **“til menejmenti”** tushunchasini ilmiy iste'molga kiritish va davlat boshqaruvining tarkibiy qismiga aylantirish zarur.

Substansial-pragmatika tilning imkoniyatlarini voqelikka aylantirishda raqamli texnologiyalarning o'rniga ham alohida urg'u beradi. **“Raqamlashtirilmagan til – o'lik til”** degan tamoyil asosida milliy korpus yaratish, tilning elektron bazasini shakllantirish lingvopolitologik xavfsizlikning muhim sharti sifatida talqin etiladi. Til boshqaruvi oiladan boshlanib, xalqaro miqyosgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab olishi, bunda har bir darajadagi foydalanuvchining o'zni ilmiy asoslanishi lozim. Shundagina o'zbek tili global raqobat muhitida o'zining substansial o'zligini saqlab qolgan holda pragmatik jihatdan yashovchanligini namoyish eta oladi.

Davlat tili menejmentining sotsiologik va huquqiy mexanizmlari

O'zbekistondagi lisoniy vaziyatni ilmiy tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb va strategik vazifalaridan. Mamlakatdagi lisoniy jamiyat va shaxs munosabati, tillarning ijtimoiy holati, tarqalish hududi hamda madaniyatlar integratsiyasidagi o'zni kabi masalalar bugungi kunda xolis va tizimli baholanishni taqozo etmoqda. Garchi o'zbek tilshunosligida til siyosati masalalari muayyan darajada o'rganilgan bo'lsa-da, bevosita **til menejmentiga** oid tadqiqotlar hamon cheklanganligicha qolmoqda. Xususan, til boshqaruvi mexanizmlari va ularning amaliy natijadorligi bo'yicha maxsus monografik

ishlar hamda fundamental izlanishlar hali yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Hozirgi bosqichda davlat tili menejmentining sotsiologik aspekti va huquqiy me'yorlarining nazariy asoslari mutaxassislar tomonidan anglanayotgan bo'lsa-da, amaliyotda jiddiy metodologik bo'shliqlar kuzatilmoqda. Davlat tilining ijtimoiylashuv jarayonlarida qonun hujjatlarining real roli va shiddatli ijtimoiy o'zgarishlarning til boshqaruviga ta'siri lingvistik tadqiqotlarda munosib aksini topishi zarur. Til menejmenti hukumatning mamlakat hududida davlat tilini tizimli joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlari yig'indisidir. Bunda boshqa millatlar tillariga nisbatan hurmat va bag'rikenglik tamoyillarini saqlagan holda o'zbek tilining hayotiyligini ta'minlovchi qonunchilik asoslarini real mexanizmlarga aylantirish dardkor.

Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun til boshqaruvini vertikal va iyerarxik tizim sifatida tasavvur qilish lozim. Til menejmenti mexanizmlari quyidagi uchta asosiy bosqichda ilmiy va huquqiy jihatdan asoslanishi shart:

quyi bosqich (oila). Bu bosqichda tilning tabiiy ravishda ajdoddan avlodga o'tishi va shaxsning ilk lisoniy dunyoqarashi shakllanishi o'rganiladi. Oila darajasidagi til menejmenti lisoniy o'zlikni saqlashning eng mustahkam poydevoridir;

o'rta bosqich (tashkilot va ta'lim). Ish yuritish, akademik muhit, professional muloqot va mehnat jamoalarida davlat tilining ustuvorligini ta'minlovchi korporativ menejment. Bu yerda lisoniy me'yorlarning qat'iy amal qilishi va ijtimoiy muloqotning sifati nazorat qilinadi;

yuqori bosqich (davlat). Strategik rejalashtirish, qonunchilik tashabbuslari, xalqaro miqyosdagi lisoniy nufuzni himoya qilish va milliy lingvistik ekspertiza tizimini yo'lga qo'yish.

Har bir bosqichda tegishli muassasalarining roli, mas'uliyati va vakolatlari aniq belgilanishi, ijtimoiy o'zgarishlarning (masalan, urbanizatsiya, migratsiya yoki raqamli transformatsiya) tilga ta'siri doimiy monitoring qilinishi shart. Faqatgina shunday ko'p pog'onali va yaxlit boshqaruv tizimi orqali davlat tili menejmentini nazariy-metodologik asosdan amaliy voqelikka aylantirish mumkin. Zero, lisoniy vaziyatni to'g'ri boshqarish jamiyatning intellektual salohiyati va madaniy integratsiyasiga ham bevosita xizmat qiladi.

Til korpusi menejmenti va til marketologiyasi

Mamlakat til menejmentida tillar maqomini huquqiy belgilash bilan bir qatorda, **til korpusi menejmenti** va **til marketologiyasini** yo'lga qo'yishning ilmiy-texnologik tamoyillari aniq dalillanishi hamda amaliyotga izchil joriy etilishi lozim. Bugungi raqamli transformatsiya davrida tilning yashab qolishi texnologik imkoniyatlar bilan ham belgilanadi. Korpus menejmenti tilning raqamli qiyofasini yaratish, uning ulkan matnlar bazasini shakllantirish, terminologik tizimini tizimlashtirish va eng muhimi, uni axborot texnologiyalari tiliga aylantirishni ko'zda tutadi.

“Raqamlashtirilmagan til – o'lik til” degan qat'iy tamoyil asosida o'zbek tilining internet makoni, sun'iy intellekt tizimlari va mashina tarjimai kabi global platformalardagi faolligini oshirish strategik zaruriyatdir. Milliy korpus tilning barcha

grammatik, leksik va semantik imkoniyatlarini algoritmlarga tushunarli tilda “o'rgatish” mexanizmidir. Bu jarayon tilning zamonaviy ilm-fan va texnika tili sifatidagi hayotiyligini ta'minlaydi.

Til menejmentining yana bir muhim tamog'i – **til marketologiyasi**. Bu yo'nalish tilning ijtimoiy jozibadorligini oshirish, iqtisodiy, madaniy va intellektual “bozor”dagi raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. “Til marketologiyasi” tushunchasi tilga nisbatan “brend” sifatida yondashishni taqozo etadi. Ya'ni til shaxsning ijtimoiy va professional yuksalishi uchun zarur, yuqori qiymatga ega resursga aylanishi kerak.

Bu yo'nalishda tilning funksiyasiga ko'ra rasmiy, viloyat, xalqaro, ta'lim va internet tili kabi maqomlarini belgilash tamoyillari ilmiy asoslanishi va qonunchilikda o'z aksini topishi lozim. Masalan, tilning ta'lim va internetdagi o'rnini huquqiy va iqtisodiy rag'batlantirish orqali uning “iste'mol qiymati”ni oshirish mumkin. Bu tilning shiddatli ijtimoiy o'zgarishlar va madaniyatlar integratsiyasi ta'sirida dinamik rivojlanish tendensiyalarini ham kafolatlaydi.

Substansial-pragmatika: til va siyosat kesishmasi

Zamonaviy tilshunoslikning eng ustuvor yo'nalishidan biri bo'lgan **substansial-pragmatika** tilni jamiyatdagi faoliyati (pragmatikasi) bilan bir butunlikda o'rganuvchi yaxlit tizimdir. Bu nazariy yondashuv lingvopolitologiya fani uchun mustahkam metodologik asbob bo'lib xizmat qiladi. Zero, til siyosati va til qurilishi masalalari tilning ham ichki imkoniyatlari (statusi)ni, ham tashqi muloqotdagi samaradorligi (faoliyati)ni birdek hisobga olishni taqozo etadi.

Bu yo'nalish doirasida “substansiya” tushunchasi tilning milliy o'zligi, uning tarixiy qatlamlari va o'ziga xos lisoniy genetik kodini anglatadi. Tilning substansial yaxlitligi uning asrlar davomida shakllangan lug'at boyligi, fonetik va grammatik qurilishida namoyon bo'ladi. Lingvopolitologiya nuqtayi nazaridan, davlat tili o'z substansiyasini begona ta'sirlardan saqlab qolishi, o'ziga xosligini yo'qotmasligi uchun davlat tomonidan huquqiy va siyosiy jihatdan qat'iy himoyalangan bo'lishi shart. Tilning substansial himoyasi – milliy o'zlikning himoyasi. Agar tilning ichki asosi zaiflashsa, siyosiy jozibadorligini ham yo'qotadi.

Ikkinchi tomondan, **pragmatika** tilning jonli muloqotdagi real samaradorligi va ijtimoiy yashovchanligini ifodalaydi. Tilning pragmatik qimmatini amaliy “ishlash” qobiliyati bilan belgilanadi. Bugungi globallashuv davrida agar davlat tili ilm-fan, zamonaviy internet texnologiyalari, raqamli iqtisodiyot va xalqaro diplomatik munosabatlarda faol qo'llanmasa, ijtimoiy-siyosiy nufuzi muqarrar ravishda pasayib ketadi. Tilning pragmatik quvvati uning zamon talblariga moslashish darajasiga bog'liq.

Substansial va pragmatik jihatlarining kesishmasi aynan lingvopolitologiyaning o'zagini tashkil qiladi. Til siyosati shunday yuritilishi kerakki, u, bir tomondan, tilning tarixiy-substansial negizini asrashi, ikkinchi tomondan, pragmatik imkoniyatlarini kengaytirib, raqobatbardosh zamonaviy vositaga aylantirishi lozim. Binobarin, til menejmenti bu ikki qutb o'rtasidagi muvozanatni saqlashga yo'naltirilgan strategik boshqaruv jarayonidir. Tilning jamiyat taraqqiyotidagi “faolligi” bugungi kunda

milliy rivojlanishning eng muhim indikatorlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Til menejmenti strategiyasi

Zamonaviy tilshunoslikda til maxsus ijtimoiy mahsulot va izchil boshqarilishi lozim bo'lgan tizim sifatida talqin etilmoqda. Bu yondashuv asosida ilgari surilayotgan “Til – jamiyat – davlat” uchligi bugungi lingvopolitologiyaning o'zak masalasi hisoblanadi. Davlat tilining nufuzini oshirish va uning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda substansial-pragmatik yondashuv quyidagi strategik vazifalarni belgilab beradi:

1) lisoniy shaxs shakllanishi. Til siyosati har bir vatandoshning ichki ehtiyoji, ma'naviy qadriyatiga aylanishi kerak. Lisoniy shaxsni shakllantirish jamiyat a'zolarida ona tiliga nisbatan ongli munosabatni va yuqori so'zlashuv madaniyatini tarbiyalash demakdir. Bunda ta'lim tizimidan tortib oilaviy muhitgacha bo'lgan barcha bo'g'inlar til menejmentining subyekti sifatida ishtirok etishi lozim;

2) til korpusi va raqamlashtirish. Bugungi shiddatli texnologiyalar asrida tilning yashab qolishi uning raqamli dunyodagi o'rniga, axborot oqimidagi salmog'iga bevosita bog'liq. Milliy korpusning yaratilishi til menejmentining **texnologik substansiyasidir**. Agar til sun'iy intellekt, qidiruv tizimlari va elektron lug'atlar bazasiga integratsiya qilinmasa, global axborot maydonida o'z nufuzini yo'qotadi. Raqamlashtirish tilning imkoniyatlarini amaliy voqelikka ko'chiruvchi eng qudratli vositadir;

3) lisoniy ekspertiza. Davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotda til me'yorlarining buzilmasligini ta'minlash uchun maxsus ekspertiza tizimi zarur. Har bir qonun hujjati, rasmiy bayonot yoki keng ommaga mo'ljallangan ijtimoiy loyiha, avvalo, til me'yorlariga muvofiqligi, mantiqiy izchilligi va xalqqa tushunarligi bo'yicha filtrdan o'tishi lozim. Lisoniy ekspertiza tilning huquqiy va ijtimoiy himoyasini ta'minlovchi o'ziga xos nazorat mexanizmidir.

Lingvopolitologik tahlilning dolzarbligi

Hozirgi o'zbek lingvopolitologiyasi oldida turgan eng katta muammo nazariya bilan amaliyot o'rtasidagi muayyan uzilishdir. Ilmiy doiralarda ishlab chiqilgan ko'plab lisoniy konsepsiyalar kundalik hayot va davlat boshqaruvi tizimiga to'liq singib ulgurmagan. **Substansial yondashuv** aynan shu uzilishni bartaraf etishga, ya'ni tilning ichki imkoniyatlarini davlat boshqaruvi mexanizmlari bilan chuqur integratsiya qilishga qaratilgan. “Til menejmenti” tushunchasi o'zbek tilshunosligiga kirib kelar ekan, u **strategik-boshqaruv** xarakteriga ega ijtimoiy institut darajasiga ko'tarilmoqda.

Lingvopolitologik tahlilning dolzarbligi shundaki, u tilni jamiyatning barcha qatlamlarini birlashtiruvchi siyosiy drayver sifatida ko'radi. Agar til boshqaruv mexanizmlari bilan bog'lanmasa, o'zining ijtimoiy tartibga soluvchi funksiyasini yo'qotib qo'yishi mumkin. Shuning uchun tilga oid har bir ilmiy xulosa bevosita huquqiy me'yor va boshqaruv qarorlariga asos bo'lishi, lisoniy ekspertiza esa davlat xizmatining ajralmas qismiga aylanishi lozim.

Rafiqjon ZARIPOV,
filologiya fanlari doktori



LUG'ATNING SUBSTANSIAL-PRAGMATIK KONVERTATSIYASI


Eski davrda lug'at deganda ko'z oldimizga javonlarda chang bosib turgan qalin, sarg'aygan sahifali kitoblardan taxassisning uzoq muddatli qidiruvlaridan so'ng topiladigan tushunarsiz izohlar keldi. Biroq bugungi shiddatli axborotlashgan jamiyatda lug'at o'zining statik qobig'idan chiqib, "jonli mexanizm"ga, aniqrog'i, sun'iy intellekt va mashina tarjimai uchun xizmat qiluvchi "elektron miya"ga aylandi. O'zbek tilshunosligining navbatdagi taraqqiyot bosqichi aynan shu nuqtada – so'z ma'nosini an'anaviy tasvirlashdan voz kechib, matematik va mantiqiy modellar asosida qayta qurishda namoyon bo'lmoqda. Bu jarayonni "semantik modellash" deb ataymiz.

Muammoning tub mohiyati shundaki, tildagi har bir birlikni ikki tomonlama – substansial-pragmatik asosda

Bu yondashuv tilshunoslikni quruq tavsifdan aniq hisob-kitob va muhandislik darajasiga ko'tardi.

Bunday tizimli tahlil so'zning atrofidagi butun bir ma'no maydonini (semantic field) qamrab oladi. Masalan, "olma" so'zi orqali "bog'", "hosil", "pishish" kabi o'nlab boshqa tushuncha bilan bog'liq semantik tarmoqni faollashtiramiz. Tadqiqotlar natijasida o'zbek tili lug'at boyligi tizimli-semantik aspektida qayta ko'rib chiqildi. Bu, o'z navbatida, o'zbek tilining milliy korpusini yaratish va mashina tarjimai algoritmlarini o'zbekcha mantiq asosida shakllantirishda poydevor bo'ldi.

So'zning "DNK"sini topish tilning jonli tabiatini algoritmlarga ko'chirish



SO'ZNING "QALBI" VA MASHINA MANTIG'I

qayta ko'rib chiqishimiz lozim. **Substansiya** – til birligining ichki imkoniyati, lug'aviy zaxiradagi "mudroq" holati bo'lsa, **pragmatika** – jonli nutqdagi, muayyan muloqot vaziyatidagi faoliyati. An'anaviy lug'atchilikda bu ikki qutb ko'pincha bir-biridan uzilgan holda talqin etilardi: izohli lug'atlar so'zning statik ma'nosini berish bilan cheklansa, nutqiy vaziyatlar lug'atdan tashqarida qolib ketardi. Bugungi kunda bu ikki yo'nalishni yagona tizimga birlashtirish davr talabidir.

Nega bu muhim? Chunki sun'iy intellekt algoritmlari so'zning "qanday va qachon" ishlatilishini (pragmatika) ham bilishi shart. Agar o'zbek tilining boy imkoniyatlarini mantiqiy modellar asosida tizimlashtirmasak, mashina tilimizni shunchaki ma'lumotlar to'plami sifatida qabul qiladi, jonli muloqot vositasi sifatida emas. Semantik modellash tirish aynan shu "sovuq" ma'lumot va "issiq" nutqiy muloqot o'rtasidagi masofani qisqartiradi.

Substansial-pragmatik yondashuv lug'atni shunchaki so'zlar jamlanmasidan murakkab semantik tarmoqqa aylantiradi. Bunda so'z o'zining barcha variantlari, uslubiy bo'yoqlari va boshqa so'zlar bilan birikish (valentlik) imkoniyatlari bilan birga modellash tiriladi. Bu jarayon tilimizning raqamli dunyodagi "immuniteti"ni oshiradi. Biz yaratayotgan "aqlli" lug'atlar o'zbek tilining ichki mantig'i asosida fikrlashni o'rganishi kerak. Binobarin, bugungi leksikografiya tilning DNK xaritasini chizuvchi yuqori texnologik jarayondir. Shundagina "elektron miyamiz" ona tilimizda tabiiy va mazmunli so'zlay oladi.

SO'ZNING "DNK"SINI TOPISH

An'anaviy leksikografiya asrlar davomida so'zni yaxlit, bo'linmas bir butunlik sifatida talqin qilib keldi. Lug'atlarda berilgan izohlar ko'pincha so'zning yuzaki qobig'ini tavsiflash bilan cheklanib, ichki strukturaviy mexanizmlarini ochib bera olmas edi. Biroq zamonaviy o'zbek tilshunosligida amaliy tilshunoslik yo'nalishining say'harakatlari natijasida so'zga yondashuv tubdan o'zgardi. Bugun so'zni "molekulyar" darajagacha parchalanishi mumkin bo'lgan murakkab semantik tizim – o'ziga xos "ma'no DNKsi" sifatida tadqiq etmoqdamiz.

Semantik modellash tirishning asosi so'zni semalarga (eng kichik ma'no bo'laklariga) ajratishdan iborat. Bu metodni maktab vakillari tilni matematik tahlil qilish va kompyuterga o'rgatishning eng samarali yo'li sifatida ko'rsatib berdilar. Masalan, oddiygina "olma" so'zini tahlil qilaylik. An'anaviy lug'atda u "meva turi" deb izohlanishi mumkin. Ammo semantik modelda bu birlik quyidagi semalar yig'indisidan iborat: [+meva], [+yumaloq], [+rang (qizil/yashil)], [+ta'm (shirin/nordon)], [+qattqlik].

Bu semantik belgilarning aniqlanishi sun'iy intellekt uchun hayotiy ahamiyatga ega. Mashina "olma" va "anor"ni farqlashi uchun ularning har ikkisi ham "meva" ekanligini bilishi kifoya emas; u bu ikki tushunchaning ichki semantik kodi o'rtasidagi farqni (masalan, [+donadorlik] semasi faqat anorga xosligini) ko'ra olishi kerak. Maktabning eng katta yutug'i shundaki, ular o'zbek tilidagi leksik birliklarning bunday mikrotahlili orqali tilning matematik obrazini yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

san'atidir. Bu jarayonda har bir sema o'z vazifasini aniq bajaradi: biri so'zning predmetlik mohiyatini ko'rsatsa, boshqasi uslubiy chegaralarini belgilaydi. Ilmiy izlanishlar o'zbek tilshunosligini "filologik cheklanganlik"dan qutqarib, uni global axborot texnologiyalari maydoniga olib chiqdi. Endilikda o'zbek so'zi raqamli dunyoda chuqur mantiqiy modelga ega bo'lgan "aqlli" axborot blokidir.

LINGVISTIK MODELLAR TO'QNASHUVI

An'anaviy tushunchada tarjima bir tildagi so'zning boshqa tildagi muqobilini topishdek oddiy jarayon bo'lib tuyuladi. Biroq zamonaviy semantik modellash tirish va mashina tarjimai algoritmlari shuni ko'rsatadiki, bu jarayon aslida ikki xil dunyoqarash – ikki xil kognitiv modelni bir-biriga muvofiqlashtirish. O'zbek va ingliz tillari misolida aytadigan bo'lsak, bu tillarning har biri olamni o'ziga xos tarzda modellash tiradi. Binobarin, so'z yangi semantik muhitda o'zining qayta shakllangan obrazini topishi kerak bo'ladi.

Muammoning mohiyati shundaki, bir tildagi so'zning semantik hajmi ikkinchi tilda aynan bitta so'z bilan doim ham qoplanmaydi. Masalan, o'zbek tilidagi qarindoshlik terminlari tizimini olaylik. Bizdagi "aka", "uka", "opa", "singil" kabi aniq yosh va jins semasiga asoslangan modellar ingliz tilida ko'pincha umumiy "brother" yoki "sister" tushunchalari ichiga yashiringan bo'ladi. Aksincha, ingliz tilidagi "privacy" yoki "integrity" kabi so'zlarning semantik maydoni o'zbek tilida bir necha so'z(masalan, "privacy" – shaxsiy hayot daxlsizligi, xilvat, maxfiylik) yordamida "bo'laklab" ifodalanaadi. Bu hodisa tilshunoslikda semantik anomaliya yoki leksik bo'shliqlar deb ataladi. Agar mashinaga shunchaki "aka = brother" deb o'rgatsak, u matnning pragmatik mazmunini yo'qotib qo'yadi.

Zamonaviy tipologik tarjima lug'atlari mana shu muammoni hal qilish uchun yangi modellar asosida tuzilmoqda. Endilikda lug'at so'zning tildagi "xulq-atvori", ya'ni kollokatsiyasi(boshqa so'zlar bilan birikish imkoniyati)ni ko'rsatishi shart. Masalan, o'zbek tilida "choy ichmoq" birikmasi tabiiy bo'lsa, ingliz tilida bu model "have tea" yoki "drink tea" shaklida namoyon bo'ladi. Ammo "dori ichmoq" deganda inglizcha model o'zgaradi: "drink medicine" emas, balki "take medicine" shakliga kiradi.

Bu kabi "xulq-atvor" qoidalari modellash tirilmagan taqdirda, mashina tarjimai "sun'iy" va tushunarsiz bo'lib qolaveradi. Semantik modellash tirish so'zning qaysi so'zlar bilan "do'stlashishi" (sintagmatik aloqa) va qaysi vaziyatda qanday ma'no yuklanishi (kontekstual valentlik) ni matematik formula darajasiga olib chiqadi. Bu mashina tarjimai sifatini keskin oshiradi va til o'rganuvchilarning nutqiy xatolarini nolga tushirishga xizmat qiladi.

IYERARXIYA VA MANTIQ

An'anaviy lug'atlarning asosiy kamchiligi "chiziqli" tuzilishida, ya'ni so'zlarning shunchaki alifbo tarti-

bida joylashishidir. Bunday tartibda ma'no jihatidan chambarchas bog'liq bo'lgan so'zlar lug'atning turli sahifasiga sochilib ketadi. Zamonaviy semantik modellash tirish izohli lug'atlarni haqiqiy "aqlli" tizimga aylantirib, so'zlarning mantiqiy "shajara"si (iyerarxiyasi)ni yaratish imkonini beradi. Bunda asosiy e'tibor so'zning tildagi kognitiv va tizim-struktura munosabatlariga qaratiladi.

"Aqlli" lug'atlarda so'zlar ma'no guruhlari – sinonimiya, antonimiya va ayniqsa, **graduonimiya** (ma'no darajalanishi) asosida joylashtiriladi. Masalan, "qo'rqmoq" so'zi shunchaki izohlanmaydi, semantik shajarasi – *hadik-siramoq* – *xavfsiramoq* – *qo'rqmoq* – *vahimaga tushmoq* – *daxshatga tushmoq* kabi o'sib borish darajasi (graduatsiyasi) bilan birga taqdim etiladi. Foydalanuvchi (yoki sun'iy intellekt) bu iyerarxiya orqali so'zning ta'sir kuchini, pragmatik yukini va nutqdagi o'rnini ham aniq anglaydi. Bu jarayon modelning "tushunish" darajasini inson tafakkuriga yaqinlashtiradi.

Bunday tizimlarning hayotiyiligini ta'minlovchi asosiy manba **korpus tilshunosligidir**. Millionlab real matnni o'z ichiga olgan korpuslar semantik modellarni "tiriltiradi". U yerda so'zlar jonli matndagi millionlab misol, statistik ehtimollik va real bog'lanishlar asosida tekshiriladi. Korpus ma'lumotlari "aqlli" lug'atdagi iyerarxik modellarni boyitadi, yangi paydo bo'lgan ma'no nozikliklarini va uslubiy o'zgarishlarni real vaqt rejimida tizimga kiritib boradi.

Amaliy tilshunoslik milliy yo'nalishi ilgari surayotgan bo'yondashuv leksikografiyani oddiy ma'lumotnoma berishdan tilning kognitiv xaritasini chizish darajasiga ko'tardi. "Aqlli" lug'at o'zbek tili mantiqiy algoritmlarining poydevoridir. U foydalanuvchiga so'zni til tizimidagi o'rni va ta'sir doirasi bilan his qilishni o'rgatadi. Bu o'zbek tili raqamli infratuzilmasining eng muhim va strategik bo'g'inidir.

O'ZBEK TILINING NUFUZI VA RAQAMLI SUVERENITET

Semantik modellash tirish o'zbek lug'atchiligini sifat jihatidan mutlaqo yangi, texnologik bosqichga olib chiqdi. Bugungi kunda tilning nufuzi raqamli olamda qanchalik "tushunarli" va "ishlovchan" ekanligi bilan o'lchanmoqda.

Tilimizni raqamlashtirish o'zbek tili mantiqi va semantik arxitekturasini algoritmlar tiliga o'girishdir. Semantik modellar asosida yaratilgan mukammal elektron platformalar o'zbek tilining "raqamli pasporti" vazifasini o'taydi. Shakllangan ushbu yondashuv o'zbek tilini sun'iy intellekt tizimlarida (ChatGPT, Google Translate, DeepL kabi) ikkinchi darajali obyektidan to'laqonli, aniq va mantiqiy ishlov beriladigan subyektga aylantiradi.

Kelajakda bu modellar asosida yaratilgan "aqlli" tizimlar har birimizning eng yaqin ko'makchimizga aylanadi. Bu tizimlar yozayotgan matnning mazmunini izchilligini tahlil qiladi, kerakli uslubiy tavsiyalarni beradi va eng muhimi, fikrimizni boshqa tillarga bor bo'y-basti, barcha semantik nozikliklari bilan o'girib beradi.

Xullas, semantik modellash tirish o'zbek tilining global axborot makonidagi nufuzini mustahkamlashning strategik kalitidir. Biz yaratayotgan bu fundamental asos kelajak avlodlarga o'z ona tillarida eng ilg'or texnologiyalar bilan muloqot qilish imkoniyatini beradi. O'zbek tili raqamli asrda jonli, rivojlanayotgan va jahon intellektual maydonida o'z so'ziga ega bo'lgan qudratli vosita bo'lib qoladi.

Lolaxon NE'MATOVA,
filologiya fanlari doktori, professor

O'zbek tilshunosligida til o'rgatish metodikasini tubdan isloh qilish, uni quruq qoidabozlikdan jonli muloqot san'atiga aylantirish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaz vazifasidir. Bu yo'nalishda substansial-pragmatik yondashuv lingvodidaktikaga mutlaqo yangi ruh olib kirdi.

VERBAL, KOGNITIV VA PRAGMATIK YAXLITLIK

Zamonaviy lingvodidaktika poydevorini tilni tirik va dinamik tizim sifatida anglash tashkil etadi. Til o'rgatish jarayonida uchta fundamental ustun – verbal, kognitiv va pragmatik jihatlarning o'zaro uyg'unligi ta'lim sifatini belgilovchi bosh mezon hisoblanadi. Bu yaxlitlik o'quvchini tilning mexanik foydalanuvchisidan kommunikativ shaxs darajasiga ko'taradi.



matik qoliqlar ushbu g'ishtlarni qanday tartibda terishni ko'rsatib beruvchi chizmalardir. Masalan, o'zbek tilidagi egalik va kelishik qo'shimchalari tizimi o'quvchiga so'zlarni bir-biriga bog'lab, yaxlit fikr hosil qilish im-

olamni lisoniy modellashtirishni o'rganadi, ya'ni u obyekt va hodisalarni o'zbek tilining mantiqiy qoliplari asosida tizimlashtiradi. Bu til o'rganuvchiga tilning "ruhi" – o'sha tilda fikrlash san'atini hadya etadi.

PRAGMATIK MAHORAT

Pragmatik jihat til ta'limining yakuniy, eng oliy va amaliy nuqtasidir. Agar verbal bosqichda "qurol"(til birliklari) yasadik, kognitiv bosqichda undan foydalanish "yo'riqnoma"si(tafakkur modellari) bilan tanishgan bo'lsak, pragmatik bosqichda bu qurolni real maydon – jonli muloqotda ishlatishni o'rganamiz. Bu yerda nazariy "imkoniyat" (til tizimi) jonli "voqelik"(nutqiy akt)ga aylanadi.

Pragmatik yaxlitlik o'quvchiga til birliklarini vaziyat, makon va zamon, suhbatdoshning ijtimoiy mavqeyiga qarab o'rinli qo'llashni o'rgatadi. Muloqotning samaradorligi, ya'ni ko'zlangan maqsadga erishish darajasi aynan shu mahoratga bog'liq. Zero, tilshunoslikda aytilganidek, "nima deyishni bilish – savodxonlik, qanday va qachon deyishni bilish esa – madaniyat"dir.

Bu bosqichda o'quvchi haqiqiy pragmatik kompetensiyani egallaydi. Bu kompetensiya unga muloqotning nozik qirralarini boshqarish imkonini beradi:

- nutqiy vaziyatni baholash. Qayerda rasmiy ohang, qayerda do'stona samimiylik kerakligini sezish;
- uslubiy moslashuv. Qayerda kesatq orqali fikrni kuchaytirish, qayerda esa lutf va muloyimlik bilan suhbatdoshning ko'nglini ovlashni bilish;
- niyat va natija muvofiqligi. So'zlovchining ichki niyati (illokutsiya) tinglovchi tomonidan to'g'ri idrok etilishini ta'minlash.

Pragmatik yondashuv o'quvchini "tildan qurol sifatida foydalanish"ga o'rgatadi. Bu qurol kishini ishontirishi, xursand qilishi, ruhan ko'tarishi yoki aksincha, muloqotni to'xtatishi mumkin. Shuning uchun ham ta'limning ushbu qismi o'quvchidan ijtimoiy intellekt va psixologik sezgirlikni ham talab etadi. Pragmatik mahorat shakllangan darslarda o'quvchi muloqot jarayonining faol, mohir va ta'sirchan ishtirokchisiga aylanadi.

KELAJAK DARSILIKLARINING QIYOFASI

Xulosa qilib aytganda, biz yashayotgan raqamli transformatsiya davri til ta'limi metodikasini ham tubdan qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Zamonaviy darsliklar va raqamli o'quv platformalari so'zning shakli (verbal), mazmuni (kognitiv) va vazifasi (pragmatik) ni bir butunlikda, organik sintezda taqdim etishi lozim. Bu uchlikning birligi til o'rganishni jonsiz yodlashdan tirik muloqot san'atiga aylantiruvchi yagona formuladir.

Bu jarayonda korpus tilshunosligi va elektron lug'atchilik ta'limning asosiy harakatlantiruvchi kuchi (drayveri) bo'lib xizmat qiladi. Milliy korpuslar o'quvchiga so'zning "laboratoriya"dagi sun'iy holatini emas, real matnlardagi jonli faoliyati, minglab turli kontekstdagi o'yinini ko'rsatib beradi. Elektron lug'atlar so'zning semantik modellari iyerarxik tarzda taqdim etib, o'quvchining ongi va tafakkurini tizimlashtiradi.

Kelajak darsliklarining qiyofasi quyidagi ustunlar ustiga quriladi:

- bilimlar integratsiyasi. Lisoniy shakl va mantiqiy ma'no ajralmas holda beriladi;
- vaziyatli modellash. Har bir dars o'quvchini real hayotiy va pragmatik ehtiyojlarni hal qilishga yo'naltiradi;
- raqamli intellekt. O'quvchi zamonaviy texnologiyalar (SI va promptlar) yordamida o'zbek tilining boy imkoniyatlarini mustaqil boshqarishni o'rganadi.

Faqat shunday yaxlit yondashuv orqali til o'rganish jarayoni insonning intellektual va ma'naviy kamolotini ham yuksaltiradi. Til o'rganish o'zligimizni va dunyoni anglashning eng oliy muloqot san'atidir.

G'ofir HAMROYEV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
tadqiqotchi-professori,
pedagogika fanlari doktori

KOMMUNIKATIV SHAXSNI SHAKLLANTIRISHNING YANGI STRATEGIYASI

Verbal daraja – tilning moddiy, ko'rinib turgan qatlami. Bunda so'zlarning talaffuzi, imlosi va gapdagi grammatik bog'lanishlarini o'rganamiz. Bu tilning "substansiyasi", ya'ni xomashyosi. Biroq ta'lim faqat shu bosqichda to'xtab qolsa, o'quvchi tildan faqat shablonlar asosida foydalanadigan, kutilmagan vaziyatlarda esa o'z fikrini ifodalashga qiynaladigan "soqov bilimdon"ga aylanib qoladi.

Kognitiv jihat tildagi har bir birlikni inson ongi va tafakkuri bilan bog'laydi. Til o'rganish olamni o'sha til mantiqi asosida qayta modellashdir. Har bir o'zbekcha so'z ortida asrlar davomida shakllangan milliy tushunchalar, konsept va qadriyatlar yotadi. Masalan, "andisha" so'zini o'rganayotgan o'quvchi o'zbek xalqi kognitiv olamidagi o'rni, ijtimoiy munosabatlardagi vazifasini ham his qilishi kerak. Bu bosqichda til ta'limi shaxsning dunyoqarashini kengaytiradi.

Pragmatik yaxlitlik zanjirning yakunlovchi va eng hayotiy halqasidir. Bu – bilimlarning amaliyotda, jonli muloqotda "portlashi". Pragmatika o'quvchiga tildan muayyan maqsad yo'lida foydalanishni o'rgatadi. Muloqotda kim bilan, qayerda va qanday ohangda gaplashish sof pragmatik mahoratdir. Masalan, rasmiy doiradagi muloqot bilan do'stona suhbatning farqiga borish, kesatq yoki kinoyani o'z o'rnida qo'llash va anglash aynan pragmatik kompetensiyaga borib taqaladi.

Bu uchlikning birligi til o'rganuvchini hayotiy muloqotga tayyorlaydi. Agar ta'limda faqat verbal jihatga urg'u berib, kognitiv va pragmatik qatlamlarni e'tibordan chetda qoldirsak, o'quvchi tilning "ruhi"ni his qilmaydi. To'laqonli til ta'limi o'quvchi ongida lisoniy shakl (verbal), mantiqiy mazmun (kognitiv) va ijtimoiy amaliyotning (pragmatik) mukammal sintezini yaratishdir. Faqat shunday yondashuvgina tilni chinakam hayotiy ko'nikmaga aylantira oladi.

VERBAL BOSQICH

Til o'rgatish jarayonini bir imorat qurilishiga qiyoslasak, verbal daraja poydevori va asosiy qurilish materiallari vazifasini o'taydi. Bu bosqich tilning tashqi qobig'i, ya'ni uning moddiy borlig'i bilan tanishish davridir. O'quvchi ushbu darajada tilning tovush tizimi (fonetika), so'z boyligi (leksika) va gap qurilish qoliplari (sintaksis) bilan yuzma-yuz keladi. Bu tilshunoslik tili bilan aytganda, tilning substansiyasini, ya'ni uning barcha ichki imkoniyatlar omborini egallash demakdir.

Verbal bosqichda til o'rganuvchi so'zlarni muayyan ma'no tashuvchi va boshqa birliklar bilan bog'lanish xususiyatiga ega "g'ishtlar" sifatida o'zlashtiradi. Gram-

matik qoliqlar ushbu g'ishtlarni qanday tartibda terishni ko'rsatib beruvchi chizmalardir. Masalan, o'zbek tilidagi egalik va kelishik qo'shimchalari tizimi o'quvchiga so'zlarni bir-biriga bog'lab, yaxlit fikr hosil qilish im-

koniyatini beradi. Bu darajada mukammallikka erishish savodxonlikning va aniq ifodaning kafolatidir. Zamonaviy lingvodidaktika uqtiradiki, so'z va uning grammatik shaklini bilish – hali muloqot qila olish degani emas. Verbal bilim faqat "asbob" beradi, undan foydalanish mahorati keyingi bosqichlarda shakllanadi. Masalan, "suv" so'zining ma'nosini bilish va uning gapdagi sintaktik vazifasini aniqlash lisoniy substansiyani egallashdir. Ammo o'sha suvni chanqagan odamga qanday uslubda, qanday ohangda va qanday vaziyatda taklif qilish (yoki so'rash) butunlay boshqa – pragmatik san'atni talab etadi.

Shuning uchun verbal darajani o'rgatishda kognitiv va pragmatik ehtiyojlarni qondirishga shaylangan dinamik zaxira sifatida taqdim etish lozim. O'quvchi tilning substansiyasini o'zlashtirar ekan, o'z qo'lidagi bu qudratli lisoniy xazinaning kelajakda jonli nutq, ta'sirchan muloqotga aylanishini his qilishi shart. Zero, poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, ustiga quriladigan tafakkur (kognitiv) va muloqot (pragmatik) binolari ham shunchalik salobatli bo'ladi.

KOGNITIV BOSQICH

Til o'rganish jarayonining ikkinchi va eng chuqur qatlami – kognitiv bosqich. Bu darajada til bilish quroli va dunyoni anglash mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Kognitiv jihat tilni bevosita inson tafakkuri va milliy mentaliteti bilan bog'laydi. Zero, til o'rganish dunyoni o'sha til egasi bo'lgan xalqning, ya'ni o'zbekning ko'zi bilan qayta kashf etish demakdir.

O'quvchi ta'lim jarayonida har bir so'z ortida turgan ulkan mantiqiy va madaniy tizimni – **milliy konseptlar**ni uchratadi. Masalan, *andisha*, *sadoqat*, *lutf*, *oqibat* kabi so'zlarni olaylik. Ularni boshqa tillarga birgina so'z bilan tarjima qilish deyarli imkonsiz, chunki bu birliklar o'zbek xalqining asrlar davomida shakllangan axloqiy va ijtimoiy qoliqlarini o'zida jamlagan. O'quvchi bu so'zlarni o'rganar ekan, o'z ongi "elagi"dan o'tkazadi. Bu jarayon "lisoniy olam manzarasi"ni shakllantirish deb ataladi.

Ta'limdagi kognitiv yondashuv o'quvchining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. U so'zning inson ongida qanday aks etishi, tushunchalar iyerarxiyasidagi o'rnini va boshqa bilimlar bilan qanday bog'lanishini ko'rsatib beradi. Masalan, "uy" konsepti bir vaqtning o'zida "boshpana", "oila", "vatan" va "xavfsizlik" kabi kognitiv tuzilmalar bilan zanjir hosil qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, kognitiv bosqichda til ta'limi shaxsning intellektual salohiyatini oshiradi. O'quvchi



Safarov Komiljon Kamolovichning 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha “Parkinson kasalligida erta namoyon bo'luvchi klinik, prognostik va biokimyoviy belgilari va ularni davolash usullari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (71) 268-17-44; e-mail: info@bsmi.uz

Matkarimova Alima Abuovnaning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.09 – Pediatriya ixtisosliklari bo'yicha “Orolbo'yi mintaqasi bolalarida birlamchi immuntanqisligi: klinik ko'rinishlari va davolash samaradorligi” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Urinboyeva Feruza Zokir qizining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligi bo'yicha “Bo'lajak muhandislarning kasbiy-kommunikativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jizzax politehnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.20.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 7-may kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Islom Karimov ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (72) 226-46-05, 226-45-47; e-mail: dgpi_info@edu.uz

G'ofurova Aziza Xidirnazar qizining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnika) ixtisosligi bo'yicha “Dasturlashtirilgan ta'lim vositalari asosida bo'lajak muhandislarga ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Jizzax politehnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.20.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 7-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Islom Karimov ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (72) 226-46-05, 226-45-47; e-mail: dgpi_info@edu.uz

Axrorov Javoxir Xurshidovichning 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha “Koronar angioplastikadan keyingi antitrombotik terapiyaning stent turi, komorbid holatlar va immun status rolini hisobga olgan holda individuallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 8-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200100, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (95) 911-00-50; e-mail: info@bsmi.uz

Dustov Aziz Yusufovichning 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari ixtisosligi bo'yicha “Aylanma suv tizimlarida tuz cho'kindisi va korroziyaning oldini olish(sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish korxonasi misolida)” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 1-may kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 225-uy, 1-bino, 239-xona.

Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

Ibrogimov Muhammadrasul Abdimumin o'g'lining 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha “Talabalar sotsial iqtidorining psixologik prediktorlari” mavzusidagi(psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.P.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-08-96; e-mail: devonxona@nuu.uz

Mirzayev Olim Saforovichning 19.00.01 – Psixologiya tarixi va nazariyasi. Umumiy psixologiya. Shaxs psixologiyasi ixtisosligi bo'yicha “Proyektiv metodikalar shaxs psixologik qiyofasini tuzishning diagnostik vositasi sifatida” mavzusidagi(psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.P.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 246-08-96; e-mail: devonxona@nuu.uz

Nabiyeva Firuza Sayfuloyevnaning 14.00.02 – Morfologiya hamda 14.00.14 – Onkologiya ixtisosliklari bo'yicha “Tuxumdonlar tuzilishining me'yorda va xavfli o'smalardagi morfologik xususiyatlari: biomarkerlarning retsidivsiz omon qolishdagi ahamiyati” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 11-may kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50;

veb-sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@buxmi.uz

Amanova Nargiza Abdurazzakovnaning 14.00.09 – Pediatriya ixtisosligi bo'yicha “Orolbo'yi mintaqasida yashovchi bolalarda ingichka ichak kasalliklarining klinik-funksional xususiyatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.02.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 8-may kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 170100, Andijon shahri, Y.Otabekov ko'chasi, 1-uy.

Tel/faks: (74) 223-94-50; e-mail: info@adti.uz

Marufov Elyorjon Uktamovichning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha “Talabalarning ingliz tilida fonetik kompetensiyasini rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 “A” mavzesi, 21-uy.

Tel/faks: (71) 230-12-91; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz, uzgumya1@exat.uz

Yunusova Zarnigor Maksadovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya hamda 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosliklari bo'yicha “Differensiallashmagan biriktiruvchi to'qima displaziyasi fonida homiladorlikni olib borish taktikasini optimallashtirish” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.0612025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Samarqand shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 70-“a”uy.

Tel/faks: (66) 233-58-92, 233-79-03; e-mail: shodikulovagulandom@gmail.com

Babadjanova Saidaxon Abdullayevnaning 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha “Pedagog shaxsi emotsional holatlarining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari” mavzusidagi(psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.P.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Bai Dongmeining 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha “Xitoy va O'zbekistonlik talabalarda ongli xulq va hayot ma'nosi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik: o'z-o'ziga g'amxo'rlik va ijobiy xulqning vositachilik roli” (The relationship between mindfulness and sense of meaning in life among chinese and uzbekistani college students: the mediating role of self-care and prosocial behavior) mavzusidagi(psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.P.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-may kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.

Tel/faks: (71) 227-12-24, 246-53-21, 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz

Avazov Jamshid Orziqulovichning 14.00.36 – Allergologiya va immunologiya hamda 14.00.20 – Tibbiy genetika ixtisosliklari bo'yicha “Atopik dermatitga moyillik va progressirlanishning immunogenetik va mikrobiotik omillari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.27.12.Tib.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-may kuni soat 12:20 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Akademik Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.

Tel/faks: (71) 207-08-30; e-mail: immunology@academy.uz

Abduraximov Dostonbek Raximjon o'g'lining 05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari ixtisosligi bo'yicha “Uzoq muddat ekspluatatsiya sharoitidagi moyli kuch transformatorlarining energiya isroflarini baholash usuli” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.28.11.T.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-may kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40-uy.

Tel/faks: (55) 520-01-52; e-mail: energetika_in@umail.uz

To'xtayeva Mehri gul Ashurovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha “Mitral teshik stenoz bo'lgan homilador ayollarda homiladorlik va tug'ruqni olib borishning zamonaviy jihatlari” mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 12-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.

Tel/faks: (95) 911-00-50; veb sayt: www.bsmi.uz; e-mail: info@bsmi.uz

Ismoilov Ibroximjon Keldiboyevichning 05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari ixtisosligi bo'yicha “Moyli kuch transformatorlarining texnik holatini ekspress diagnostika qilish usullarini takomillashtirish” mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/2025.28.11.T.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 15-may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40-uy.

Tel/faks: (55) 520-01-52; e-mail: energetika_in@umail.uz



(Davomi. Boshi 8-9-betlarda.)

Metodologik jihatdan bu jarayonda diskursiv metod markaziy oʻrin tutadi. Diskursiv metod orqali nutqning ijtimoiy-siyosiy konteksti ham oʻrganiladi. Zero, ayni bir soʻz har xil kontekstda turlicha huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, siyosiy munozaralar chogʻida ishlatilgan keskin ibora bilan shaxsiy adovat zamini-da aytilgan soʻzning huquqiy bahosi bir-biridan tubdan farq qiladi. Diskurs-tahlil nutqning qaysi ijtimoiy guruhga qaratilganini va qanday vaziyatda aytilganini hisobga olgan holda xolis xulosa chiqarish imkonini beradi.

Lingvistik ekspertizaning eng zamonaviy va nozik quroli – pragmalingvistik yondashuv. Pragmalingvistika yordamida matndagi yashirin niyat (illokutsiya) va matnning tinglovchiga taʼsir kuchi(perlokutsiya) fosh etiladi. Amaliyotda koʻpincha matnda bevosita haqorat yoki kamsituvchi soʻzlar ishlatilmagan holatlarga duch kelinadi. Biroq pragmatik tahlil orqali soʻzlovchi nutqining zamirida yashiringan kamsituvchi maʼno, kinoya, piching yoki zoʻravonlikka daʼvat borligi ilmiy isbotlanishi mumkin. Bu metod tilshunosga matnning “satr osti” maʼnolarini oʻqish va muallifning haqiqiy niyatini aniqlash imkoniyatini beradi. Shuningdek, soʻnggi yillarda korpus lingvistikasi va statistik metodlarni ekspertizaga tatbiq etish masalasi sohaning xolisligini taʼminlashda inqilobiy qadam boʻldi. Katta hajmdagi matnlar(big data) bilan ishlashda statistik metodlar soʻzlarning qoʻllanish chastotasi va kollokatsiyalari(soʻz birikmalari)ni tahlil qilib, ekspertning subyektiv fikridan xoli aniq raqamli dalillarni taqdim etadi. Milliy korpus maʼlumotlariga tayanish orqali soʻzlarning tildagi meʼyoriy holati va muayyan kontekstdagi ogʻishi orasidagi farqni aniq koʻrsatib berish mumkin.

Bu lingvistik ekspertiza xulosalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini yangi bosqichga olib chiqadi.

JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA HUQUQIY HIMOYA

Lingvistik ekspertologiyaning amaliy ahamiyati bugungi kun ijtimoiy hayotining xavfsizlik va axloqiy mezonlarini belgilashda ham markaziy oʻrin tutadi. Soha jamiyatda adolatni qaror toptirishning oʻziga xos lisoniy filtri vazifasini oʻtaydi. Sohaning amaliy koʻlami oʻta keng qamrovli, birinchi navbatda, shaxs huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Tahdidli xatlar, tuhmat mazmunli matnlar yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi nutqiy aktlarni aniqlashda lingvistik ekspertiza asosiy vosita hisoblanadi. Ekspertlar matndagi har bir soʻzning semantik yu-kini tahlil qilib, ortida haqiqiy tajovuz niyati bormi yoki bu shunchaki emosional ifodami – buni aniq ajratib berishadi. Ayniqsa, ekstremistik chaqiriqlarni aniqlashda tilshunosning xulosasi jamiyat xavfsizligini taʼminlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Yashirin daʼvatlar va manipulyativ usullarni fosh etish orqali lingvistik ekspertologiya mafkuraviy xurujlarga qarshi lisoniy qalqon boʻlib xizmat qiladi.

Raqamli dunyoda ijtimoiy tarmoqlar muloqotning asosiy maydoniga aylan-di, bu oʻz navbatida kiber-jinoyatchilik va anonim haqoratlarning koʻpayishiga olib keldi. Bugungi kun ekspertologiyasining kundalik vazifasiga aylangan eng murakkab jarayonlardan biri – anonim profil yoki taxalluslar ortiga yashiringan shaxslarni xos nutqiy “bar-moq izlari” orqali identifikatsiya qilish. Har bir insonning soʻz boyligi, imlo xatolaridagi takrorlanishlar, punktuatsiyaga boʻlgan moyilligi va gap tuzish qoliplari uning shaxsini tasdiqlovchi dalilga aylanishi mumkin. Bu usul in-

TIL VA HUQUQ CHORRAHASIDAGI HAQIQAT

tellektual mulk sohasidagi plagiat holatlariga chek qoʻyishda ham yagona ilmiy yechim hisoblanadi.

Bundan tashqari, lingvistik tahlil iqtisodiy va tadbirkorlik munosabatlari-da ham hal qiluvchi rol oʻynaydi. Reklama sohasidagi isteʼmolchini chalgʻituvchi, noaniq yoki ikkilamchi maʼno beruvchi ifodalar koʻpincha yirik huquqiy nizolarga sabab boʻladi. Ekspertlar reklama matnlarini tahlil qilib, qonunchilik talablariga muvofiqligi, isteʼmolchi ongiga taʼsir qilish darajasini baholaydilar. Tovar belgilari (brand names) atrofidagi nizolar, yaʼni ikki nomning bir-biriga lisoniy jihatdan oʻxshashligi va isteʼmolchini adash-tirishi mumkinligi masalasida faqat professional tilshunosning xulosasi yakuniy nuqtani qoʻya oladi.

Shunday qilib, lingvistik ekspertologiya jamiyatning huquqiy himoyasini taʼminlovchi jonli mexanizm. Shaxsning shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilishdan tortib, davlat xavfsizligi va adolatli tadbirkorlik muhitini yaratishgacha boʻlgan barcha bosqich-da tilshunoslikning qudratini namoyon etadi. Zamonaviy tilshunos jamiyatning ogʻriqli nuqtalarida oʻz bilimi bilan adolatni isbotlovchi haqiqiy himo-yachiga aylanishi lozim.

RAQAMLI KELAJAK

Lingvistik ekspertologiyaning ertan-gi kuni raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt va “Natural Language Proces-sing”(NLP) imkoniyatlari bilan cham-barchas bogʻliq. Kelajakda bu soha shun-chaki insoniy tajribaga tayanib qolmay, ulkan maʼlumotlar bazasi(big data)ni soniyalar ichida tahlil qila oladigan avtomatlashgan tizimlar bilan boyishi kutilmoqda. Bu millionlab matnlarni bir zumda oʻzaro taqqoslash, mualliflik uslubidagi eng nozik oʻxshashliklar-ni aniqlash va bugungi kunning global muammosiga aylangan feyk(yolgʻon) xabarlarini avtomatik filtrlash imkoni-ni beradi. Raqamli lingvistik ekspertiza kelajakda kiber-jinoyatchilikka qarshi

kurashning eng samarali va aniq quroli-ga aylanadi. Oʻzbekistonda bu istiqbolli yoʻnalishni tizimli rivojlantirish uchun, birinchi navbatda, kadrlar tayyorlash masalasi dolzarb. Amaliy tilshunoslik maktabining strategik maqsadlaridan biri ham aynan shu – universitetlarda “Lingvistik ekspertologiya” boʻyicha maxsus magistratura yoʻnalishlarini ochish va tilshunos-ekspertlarning yangi avlodini shakllantirish. Bu mutaxassis-lar zamonaviy dasturlash tillari, statistik tahlil metodlari va huquqiy meʼyorlar-ni ham mukammal bilishi talab etila-di. Akademik tayyorgarlikning bunday yuqori darajasi sohani xalqaro standart-lar darajasiga olib chiqishning yagona yoʻlidir.

Shu bilan birga, milliy ekspertiza standartlarini ishlab chiqish va xalqaro tajriba bilan uygʻunlashtirish vaqti kel-di. Oʻzbek tili korpusining imkoniyat-laridan sud-ekspertiza amaliyotida keng foydalanish, lisoniy dalillarni baholash-ni yagona metodologik bazasini yara-tish sohadagi subyektivlikni kamaytirib, xolislikni taʼminlaydi. Bu jarayonda jahonning yetakchi forensik lingvisti-ka markazlari bilan hamkorlik qilish, tajriba almashish va milliy metodika-mizni global ilmiy makon bilan integrat-siya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, til xalqaro aloqa vositasi ekan, uning huquqiy himoyasi ham xalqaro andozalarga mos boʻlishi lozim.

Pirovardida, lingvistik ekspertologi-ya jamiyatda huquqiy barqarorlik va sogʻlom axborot muhitini taʼminlash-ni eng mustahkam ustunlaridan biri boʻlib qoladi. Tilshunoslikning bu amaliy tarmogʻi shaxsning shaʼni, jami-yatning tinchligi va davlatning axborot xavfsizligini himoya qilishda oʻzining beqiyos qudratini namoyon etaveradi. Yangi Oʻzbekistonning intellektual sa-lohiyati va olimlarning ilmiy jasorati tufayli oʻzbek tilshunosligi yuqori tex-nologiyalar davrida ham oʻzining mu-nosib oʻmini egallaydi.

Kamola MUSULMONOVA,
filologiya fanlari boʻyicha
falsafa doktori

Marifat

TAʼSIS ETUVCHILAR:

Oʻzbekiston maktabgacha va maktab taʼlimi vazirligi,
Oʻzbekiston oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
Oʻzbekiston taʼlim va fan xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta Oʻzbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6121. Tiraji 6952.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qogʻoz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

Tel/faks: (55) 512-01-50



“Maʼrifat”dan
materiallarni koʻchirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qoʻlyozmalar taqriz
qilinmaydi va mual-lifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani
yuklab olish uchun
ushbu QR-kodni
skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.



Dizayner: Malohat Toshova.
Navbatchi muharrir: Faxriddin Rahimov.
Navbatchi: Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

MANZILIMIZ:

100099, Toshkent shahri,
Darvozakent koʻchasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

“Oʻzbekiston” nashriyot-matbaa
ijodiy uyida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent shahri,
Alisher Navoiy koʻchasi, 30-uy.